O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

GUMANITAR FANLAR VA JISMONIY TARBIYA KAFEDRASI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
______________ P. Lutfullayev
"____" ____________ 2025-yil

# "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar" fanidan O'quv uslubiy majmua

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110000 – Ta'lim |
| Mutaxassisligi: | 70111501- Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili |

Namangan– 2025

Ushbu fan dasturi Namangan DCHTI Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasida ishlab chiqilgan va Kengashining 2025 yil 29 avgustdagi 1-sonli yig'lishida tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-ta'lim tizimidagi islohotlar" o'quv fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** S.J.Mirzaxalov Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Taqrizchi**: N.Abduholiqova- Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

## MUNDARIJA:


| | |
|---|---|
| I. | **O'QUV MATERIALLAR** |
| 1) | **Ma'ruza mashg'ulotlari** |
| 2) | **Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari** |
| II. | **MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI** |
| 1) | **Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar** |
| 2) | **Kurs ishi yozish bo'yicha tavsiyalar** |
| III. | **GLOSSARIY** |
| IV. | **ILOVALAR** |
| 1) | **Fan dasturi** |
| 2) | **Ishchi fan dastur** |
| 3) | **Tarqatma materiallar** |
| 4) | **Testlar** |
| 5) | **Baholash mezonlari** |

# O’QUV MATERIALLAR

# Ma’ruza mashg’ulotlari

**1-Mavzu: Kirish. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” o’quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.**

**Reja.**

1. “Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar” o’quv fanining.
2. “Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar” fanining maqsadi va vazifalari.
3. “Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar” fanining nazariy - metodologik tamoyillari.

**Tayanch tushunchalar:** strategiya, predmeti, maqsadi va vazifalari, metodologik tamoyillari

Mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o’tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo’yicha ta’sirchan choralar ko’rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag’allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o’rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi.

So’nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi

O’zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Yangi o’zbekistonni barpo etish-bu shunchaki xohish, sub’ektiv xodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo’lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o’zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to’la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir.

Fan yoki ilm-fan ilmiy metod bilan toʻplangan bilimlarning tartibli tizimidir.

**Fan** — dunyo xaqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bogʻliq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli — olamning ilmiy. Manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham oʻz ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi oʻzining o’rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Har bir fanning o’z predmeti bo’lganidek, “yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi-ta’lim tizimidagi islohotlar” ning ham predmeti, uning bahs qiladigan mavzui bordir. “Yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi-ta’lim tizimidagi islohotlar” faning predmeti bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi ishlar, ularning tahlili va bu islohotlarning rivojlanishining qonuniyatlarini o’rganishdan iborat. Fanni o’rganishning zaruriyati. Respublikamizdagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida, shuningdek umumiy oʻrta ta’lim tizimida faoliyat koʻrsatuvchi boʻlajak tarixchi mutaxassislarga vatanimiz, xalqimiz tarixiga oid boʻlgan zamon talabi darajasidagi chuqur bilimlarni berishga qaratilgan.

Fanning maqsadi – talabalarga yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining bugungi kunda isloxotlari tarixiy jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini davriy ketma-ketlikda oʻrgatish, shu bilan birga tarixiy voqealarni oʻrganish, ularni ahamiyatini tahlil qilishda birlamchi, asl manbalar bilan ishlash koʻnikmasini shakllantirishan iborat

Fanning vazifalari – Yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi-ta’lim

tizimidagi islohotlar fan  sifatida yoritish va o‘quvchi diqqatini uzoq o‘tmishga qaratish bilan biga talabalarning dunyoqarashlarini, ilmiy nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o‘tmish va hozirgi zamondagi voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy obektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqelikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalash, talabalarda xalqimizning madaniy, ma’naviy merosiga, ilg‘or an’analari, milliy qadriyatlari, ahloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg‘ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissalaridan faxrlanish.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo’llari, bilimni tajribaga tadbiq qilish mexanizmlari va shakillarini o’rganadi. Shuningdek, mktodologiya metodlar yig’indisi va faoliyat turi xaqidagi ta’limotdir.

Strategiyada quyidagilar belgilandi:

**1)** 2026 yilgacha aholining barcha muhtoj qatlamlari ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam oladilar;

**2)** Qoraqolpog’iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi birinchi-to’rtinchi sinf o’quvchilari davlat byudjeti mablag’lari hisobidan bepul ovqatlanish (nonushta yoki tushlik) bilan ta’minlanadi;

**3)** 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 barobaridan 12 barobarigacha oshiriladi;

**4)** 1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 mln so’mgacha bo’lgan to’lovlari daromad solig’idan ozod etiladi;

**5)** umumiy o’rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 mlrd so’m ajratiladi va 141 mingta yangi o’quv o’rinlari yaratilib ularning soni 2026 yil yakuniga qadar 6,4 mlngacha yetkaziladi;

**6**) hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini “bir qadam” tamoyili asosida yo’lga qo’yib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etiladi;

**7)** 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9%gacha va 2023 yilda 5% hamda fiskal taqchillikni 3%gacha pasaytirish choralari ko'rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab boriladi;

**8)** 2023 yildan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12%gacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15%gacha tushiriladi;

**9)** "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20%ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20%ga qisqartirish choralari ko'riladi;

**10)** 2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reestrga kiritish tartibi joriy etiladi hamda takrorlanuvchi va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablar qayta ko'rib chiqilib, yagona reestr 2025 yil 1 iyuldan boshlab to'liq ishga tushiriladi;

**11)** 2022 yil 1 aprelga qadar tadbirkorlik sub'ektlarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarining mavjudligidan hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillari soddalashtiriladi;

**12)** 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalar tugatiladi;

**13)** fuqarolarga hujjatlarni berish va almashtirishda, shuningdek o'zaro bog'liq davlat xizmatlarini murojaatni kutmasdan taklif etish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

**14)** "Fuqarolarning raqamli pasporti" loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan tug'ilganlik to'g'risida va haydovchilik guvohnomalari, shahodatnoma va diplom kabi muayyan faktni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyoti bekor qilinadi;

**15)** keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini soddalashtirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratiladi;

**16)** ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etiladi;

**17)** harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo'yicha yagona onlayn elektron reestr yuritilishi yo'lga qo'yiladi;

**18)** jazoni o'tab bo'lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga amaliy ko'maklashish uchun "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish tizimi joriy qilinadi.

Strategiya besh bosqichda amalga oshiriladi, ularning har biri aniq maqsadlardan iborat. Hammasi bo'lib 100 ta maqsad mavjud.

**Nazorat savollari:**

1. "Yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar" o'quv fanining prideti nimadan iborat
2. "Yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar" fanining maqsadi va vazifalari haqida gapiring
3. "Yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi- talim tizimidagi islohotlar" fanining nazariy - metodologik tamoyillari nimadan iborat

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o'zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. Oʻzbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lugʻat // M.Abdullaev va boshqalar: toʻldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda oʻzbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma'naviyat, 2017.
6. Mustaqil oʻzbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**2- Mavzu: O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida.**

**Reja.**

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmuni
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustvor yo’nalishlar
3. O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida belgilangan vazifalar

**Tayanch tushunchalar:** taraqqiyot strategiyasi mazmuni, strategiyasida belgilangan ustvor yo’nalishlar, taraqqiyot strategiyasi asosida belgilangan vazifalar.

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o’tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo’yicha ta’sirchan choralar ko’rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag’allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o’rinlari va

kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi.

So’nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O’zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so’zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilash maqsadida:

1. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo’nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o’rinlarda – Taraqqiyot strategiyasi) va uni “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o’rinlarda – Davlat dasturi) 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

2. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug’lashga yo’naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo’yicha belgilangan vazifalar doirasida:

a) 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to’liq qamrab olinsin.

Moliya vazirligi (T.Ishmetov) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S.Xolxo'jaev), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi (R.Mamatov) hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.Xusanov) bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish, jumladan, ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish; kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish; "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan, "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni "Ijtimoiy himoya yagona reestri" bilan integratsiya qilish;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilarini Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul ovqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlash yo'lga qo'yilsin.

Xalq ta'limi vazirligi (B.Saidov) Sog'liqni saqlash vazirligi (B.Musaev), Moliya vazirligi (T.Ishmetov) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2022 yil 1 apreldan boshlab birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlashni tashkil etish bo'yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Bunda loyihada ajratiladigan mablag'lar sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va korruptsiyaviy omillarning oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlar nazarda tutilsin;

v) 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirilsin.

Moliya vazirligi (T.Ishmetov) uch oy muddatda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini kiritsin:

ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta’tilida bo’lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo’shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish;

bolalikdan nogironligi bo’lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo’shib hisoblash.

3. Mahallaning “faol” modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash maqsadida 2022 yilda:

mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo’lga qo’yilsin;

barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o’z yo’nalishi bo’yicha muammolarni o’rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilansin;

mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko’rsatish, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo’lga qo’yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzi oshirilsin;

mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining vakolatlari qayta ko’rib chiqilib, moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilsin;

mahallalarning “o’sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilsin;

mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko’maklashish va o’qitish markazlari, tadbirkorlik ob’ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo’yicha chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

mahallani joylardagi vakillik organlari bilan doimiy aloqalarining huquqiy asoslarini yaratish, shu jumladan, mahalla raisi tomonidan mahalliy Kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilsin;

fuqarolar tomonidan mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish instituti joriy etilsin.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi (R.Mamatov) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (M.Ubaydullaev) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda keng jamoatchilik, shu jumladan, mahalla tizimida ko'p yillik ish stajiga ega xodimlarni jalb qilgan holda mahalla faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi va yangilangan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda:

a) 1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlari daromad solig'idan ozod etilsin.

Moliya vazirligi (T.Ishmetov) Davlat soliq qo'mitasi (SH.Kudbiev) bilan birgalikda ikki oy muddatda Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 milliard so'm ajratilsin;

141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratilsin va ularning soni 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazilsin.

Xalq ta'limi vazirligi (B.Saidov) Moliya vazirligi (T.Ishmetov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.Xusanov) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi o'quv o'rinlarini yaratish va maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha choralarni ko'rib borsin.

5. Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligini ta’minlash bo’yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda:

a) hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini “bir qadam” tamoyili asosida yo’lga qo’yib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etilsin.

Sog’liqni saqlash vazirligi (B.Musaev) Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda hududlarda tegishli qurilish ishlarini 2022 yil yakuniga qadar yakunlash bo’yicha amaliy choralarni ko’rsin;

b) Sog’liqni saqlash vazirligi (B.Musaev) Moliya vazirligi (T.Ishmetov) bilan birgalikda ikki oy muddatda xususiy tibbiyot tashkilotlarida Davlat byudjeti hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolashga yo’llashning elektron axborot tizimi orqali ularga bepul tibbiy xizmatlarni ko’rsatish mexanizmi joriy qilinishini ta’minlasin.

6. Xalq ta’limi vazirligi (B.Saidov) va Sog’liqni saqlash vazirligi (B.Musaev) Moliya vazirligi (T.Ishmetov), Prezident ta’lim muassasalari agentligi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi bilan birgalikda 2022 yil 1 iyulga qadar:

2022 yilda iqtidorli o’qituvchi va shifokorlarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirish;

xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda o’qituvchi va shifokorlarga malaka toifalarini berish tartibi tubdan qayta ko’rib chiqilishini ta’minlasin hamda malakani baholash uslubiyoti asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish bo’yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

7. Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash bo’yicha belgilangan vazifalar doirasida:

a) 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023 yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko’rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko’rsatkichdan oshmasligi ta’minlab borilsin.

Bunda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilshi belgilandi

**Nazorat savollari:**

1. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmuni nimalardan iborat
2. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustvor yo’nalishlar mazmuni nimalarga qaratilgan
3. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar haqida fikr yuriting

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida.
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**3-Mavzu: Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini. taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish**

**Reja .**

1. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi taraqqiyotning eng asosiy va zarur sharti
2. Taraqqiyot strategiyasi: qonun ustuvorligining muhim kafolati
3. Adolat va qonun ustuvorligi — inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy sharti

**Tayanch tushunchalar:** adolat va qonun ustuvorligi**,** qonun ustuvorligining muhim kafolati**,** inson qadr-qimmati

2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan biri mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish hisoblanadi.

Unga ko’ra ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tartibini joriy etish belgilandi. Qonun ustuvorligi – barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me’yoriy hujjatlar va yo‘riqnomalardan ustun turadi. Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va

qonunchilik ta’minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida mustahkamlangan: "O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar". Harakatlar strategiyasi asosidagi islohotlar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudlarning fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. 5 yilda ushbu yo‘nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 50 dan ortiq qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Sud tizimiga oid normativhuquqiy hujjatlar islohotlarga mos ravishda yangilandi. 3 ta kodeks yangidan qabul qilindi, boshqa bir qator kodekslarga jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi. Yangi “Sudlar to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Shu huquqiy asosda sud tizimi tubdan takomillashtirildi.

Sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan islohotlar, eng avvalo, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga, inson huquq va erkinliklarini, shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoyalashga xizmat qilmoqda. Bu boradagi samaralar sudlar tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, sudlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, inson huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar misolida yaqqol namoyon bo‘ldi.
Jumladan, Prezidentimizning sudyalarning vakolat muddatini uzaytirish, sud ishlarida adolatli qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan, yuksak malakali sud xodimlari korpusini shakllantirish borasidagi besh yil oldingi tashabbusi asosida sudyalik lavozimlariga nomzodlarni saralash va tayinlashning yangi tartib-taomillari joriy etildi.

Sudlar mustaqil ekani va faqat qonunga bo‘ysunishini ta’minlashda sudya lavozimida bo‘lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik va so‘ng muddatsiz davr belgilandi. Sudyalarning lavozimiga keyingi muddatga qayta saylanishi yoki

tayinlanishi, o‘z vazifalarini namunali ado etgach, keyinchalik o‘n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanishi yoki tayinlanishi belgilandi. o‘tgan 5 yilda 3 ming 513 nafar, faqat 2021-yilning 9 oyida 743 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan. Shuningdek, 18 026 nafar shaxs sud zalidan ozod qilinib, 33 ming 515 fuqaroga nisbatan asossiz qo‘yilgan moddalar ayblovlardan chiqarilgan yoki o‘zgartirilgan. Xalqaro standartlarga mos ravishda uch bosqichli sud tizimi yaratildi: birinchi instansiya (tuman (shahar) sudlari, ayrim toifadagi murakkab ishlar bo‘yicha — viloyat sudlari), apellyatsiya instansiyasi (viloyat darajasidagi sudlar) va kassatsiya instansiyasi (Oliy sud) dan iborat bo‘lgan “Bir sud — bir instansiya” tamoyili joriy qilindi.

2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq: Sudyalar oliy kengashi tashkil etilgan

*Kengash tarkibining kamida yarmini sudyalar hisobidan shakllantirish

*fuqarolik jamiyati institutlari vakillari

*huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni kiritish tartibi belgilandi

- ▶ Sudyalar oliy maktabi tashkil etildi: Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash
- ▶ sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash
- ▶ ularning malakasini oshirish
- ▶ ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tartibi joriy etilishi
- ▶ mazkur Farmon bilan jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish uchun “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimi joriy qilindi
- ▶ Ushbu tizim doirasida jazoni o‘tab bo‘lgan va o‘zining tadbirkorlik, me’morchilik, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlarda aniq loyihalarini taqdim etib, mustaqil faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga bir martalik moddiy yordam berish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sud tizimining mustaqilligini ta’minlash,

fuqarolarning daxlsiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, odil sudlovning amaldagi mustaqilligiga erishish amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning “Islohot – inson uchun!” degan hayotiy shiorning amaldagi ifodasidir. Binobarin, ana shu tub yangilanishlar jamiyatimizda qonun ustivorligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini adolatli tarzda himoyalashga xizmat qiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmuni nimalardan iborat
2. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustvor yo’nalishlar mazmuni nimalarga qaratilgan
3. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar haqida fikr yuriting

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida.
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

## 4- Mavzu: Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish suratlarini taminlash

**Reja**

1. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish soxasidagi asosiy vazifalar
2. Milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish
3. Iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirish

**Tayanch tushunchalar:** Milliy iqtisodiyot, Iqtisodiyotni liberallashtirish, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish soxasidagi asosiy vazifalar: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish. 3. Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg’or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish. Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish. 5. Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko’rish.

7. Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish.

Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish. 9. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish. Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish. 11. Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish. Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko'paytirish. 13. Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish. 14. Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish

O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. 16. Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.

Milliy iqtisodiyotni iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, ayniqsa, tadbirkorlik harakatiga keng yo‘l ochib berishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Binobarin, iqtisodiyotning liberallashtirilishi bu davlatni nomarkazlashtirish bo‘lib, uning iqtisodiy boshqaruvdagi funksiyalarini o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlariga, xususiy sektorlarga o‘tib borishini anglatadi.

Ushbu jarayonda ikkita muhim strategik vazifani hal qilish zarur. Avvalo, xususiylashtirilayotgan mulk haqiqiy mulkdorlar qo‘liga berilishi kerak. Chunki iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish uchun real shart-sharoitlar yaratishga

imkon tug‘dirilishi milliy ongning o‘sishi va tafakkur taraqqiyotiga olib keladi. Navbatdagisi, iqtisodiyotda ko‘p ukladlilikni hamda raqobat muhitini yaratish orqali davlatning mulkka bo‘lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarni barpo qilishdir. Bu, o‘z navbatida, jamiyat turmush sharoitiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, odamlarning xususiy mulkka nisbatan qarashi o‘zgarishi, ijtimoiy ongning shakllanishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, davlat mulki xususiylashtirilib, kichik biznesning rag‘batlantirilishi tufayli jamiyatda mulkdorlarning yangi qatlami vujudga keladi. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan islohotlarning yangi bosqichida iqtisodiyotda davlat ishtiroki bosqichma-bosqich kamaytirilmoqda

Bugungu kunda Iqtisodiyot professional diagnostika asosida tahlil etilib, strategik harakatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2017 yilda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari 5,5 foizni tashkil qildi, eksport hajmi qariyb 15 foiz ko‘paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 854 million AQSh dollariga yetkazildi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mamlakatimiz gaz va elektr energiya sohasidagi kapitalning texnologik eskirganligi hamda modernizatsiyalashtirilmaganligi sababli gaz ishlab chiqarishda tabiiy gazning 23 foizgacha, elektr uzatishlarda esa elektr energiyasining 20 foizgacha isrof bo‘layotgani aniqlandi

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotimizda yig‘ilib qolgan bunday muammolarni bartaraf etish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar qatorida, O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha kuchli milliy g‘oya, milliy dastur kerakligini alohida ta’kidladilar. Bunday dasturning yaratilishi mamlakatimizda ilm-fan hamda texnologiyaning rivojlanishi va iqtisodiyotimizni modernizatsiyalashga ulkan hissa qo‘shadi.

Darhaqiqat, dunyoda ilm-fan hamda texnologiyani rivojlantirish dasturlari va ularning yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish orqali o‘z taraqqiyot yo‘lini mustahkam qurgan davlatlar ko‘plab topiladi. Janubiy Koreya — ana shulardan biri.

O‘tgan asrning 60-yillarida dunyoning qashshoq mamlakatlari safida bo‘lgan ushbu davlat texnologik rivojlanish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish orqali jahonda yetakchilardan biriga aylandi. Xuddi shunday hayotiy dasturlar orqali Malayziya, Xitoy ham qoloq va agrar mamlakatdan sanoati taraqqiy topgan, jadal rivojlanayotgan davlat sifatida shakllandi. Ular rivojlangan davlatlar safidan tushmaslik uchun mudom kuchli raqobatga kirishish, o‘z pozitsiyasini yo‘qotib qo‘ymaslik payidan bo‘ladi. Tabiiyki, bunda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan, texnologik o‘zgarishlarni o‘zida mujassam etgan milliy dasturlar qo‘l keladi. Hozirgi globallashuv hamda kuchli raqobat muhiti mamlakatlar oldiga innovatsiyalar va texnologik o‘zgarishlarni izchil amalga oshirish vazifasini qo‘ymoqda. Ana shu jihat inobatga olingan holda, yurtimizda innovatsion faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratilayapti. “Mirzo Ulugbek Innovation Center” markazi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil qilinganligi mazkur ishlarning debochasi bo‘ldi. 2022-yil uchun “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunda kelgusi yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 6 foizni tashkil etishi, 2024-yilga borib 6,6 foizga yetishi kutilmoqda. 1-yanvardan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini 2 foizdan 1,5 foizgacha pasaytirish, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliq yetishtirish uchun foydalanilgan suvdan tashqari) stavkalarini inflyatsiya darajasida 1,1 barobarga indeksatsiya qilish mo‘ljallangan. kelgusi yilda asosiy vositalarga investitsiyalar kiritilishini rag‘batlantirish maqsadida foyda solig‘i bazasidan chegiriladigan ayrim xarajatlar miqdori oshirilmoqda. Jumladan, amortizatsiya ajratmalari normalari o‘rtacha 2 barobar, xususan, binolar uchun 3 foizdan 5 foizga, inshootlar – 5 foizdan 10 foizga, uzatish qurilmalari va kuch mashinalari – 8 foizdan 15 foizga, ish mashinala- ri va asbob-uskunalar – 15 foizdan 20 foizga, kompyuter va ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari 20 foizdan 40 foizga oshirilmoqda.

Natijada qariyb 130 mingta korxonada qo‘shimcha 10 trillion so‘mga yaqin mablag‘ni foyda solig‘i bazasidan chegirish imkoniyati yaratiladi va ularning

ixtiyorida yana 1,5 trillion so‘mga yaqin mablag‘ qolishi hisob-kitob qilindi
bir martalik investitsiyaviy chegirma miqdori 2 barobar, xususan, yangi texnologik uskunalar uchun 10 foizdan 20 foizga, ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha yangi qurilish uchun 5 foizdan 10 foizga oshirilmoqda.

2022-yilda asosiy vositalar sotib olgan korxonalarning foyda solig‘i bazasiga investitsiyaviy chegirma qo‘llanilishi natijasida ular ixtiyorida jami 600 milliard so‘m (qo‘shimcha 300 milliard so‘m) mablag‘ qolishi kutilmoqda. Mahalliy va xorijiy investorlarga teng shart-sharoitlar yaratish maqsadida respublikada doimiy muas- sasa orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar tomonidan foyda solig‘i bilan birga sof foydadan dividend solig‘i (10 foiz) to‘lash tartibi joriy etilmoqda.

Foyda solig‘ini hisoblashda olingan zararning 60 foizini o‘tkazish bo‘yicha cheklov bekor qilinmoqda. Qat’iy miqdorda belgilangan aksiz, yer, mol-mulk, suv soliqlari stavkalari o‘rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda. -fuqarolarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qaytarishning eksterritorial tartibi joriy etiladi. Ya’ni jismoniy shaxslar ro‘yxatdan o‘tgan joyidan qat’i nazar, eng yaqin bo‘lgan soliq organiga borib yoki elektron shaklda ariza berish orqali daromad solig‘ining ortiqcha to‘langan summasini bank kartasiga qaytarib olishi mumkin bo‘ladi. Soliqlarning asosiy turlari bo‘yicha stavkalar o‘zgarishsiz qoldirilyapti. Jumladan, qo‘shilgan qiymat, foyda soliqlari stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – 12, dividendlar ko‘rinishidagi daromadlardan olina- digan foyda solig‘i – 5, aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 4-noyabrdagi qaroriga asosan, Davlat soliq qo‘mitasi huzurida tashkil etilgan Fiskal institutda hozir jami 1560 nafar talaba soliqlar va soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va audit, raqamli iqtisodiyot bakalavriat yo‘nalishlarida tahsil olmoqda. Bugungi kunda tizimdagi o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan 2516 nafar xodim oliy ma’lumotga ega bo‘lish istagida Fiskal institutga hujjat topshirdi. Shuningdek, tizimda ishlovchi xodimlarning malaka va kasbiy bilimini oshirish maqsadida 2021-yilning o‘tgan davrida 3 ta

yo‘nalishda o‘quv kurslari tashkil qilindi va jami 2 984 nafar xodim o‘qitildi.

Xulosa yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yillikda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, kambag'allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan**.**

**Nazorat savollari:**

1. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish soxasidagi asosiy vazifalar nimalardan iborat
2. Milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish maqsadida mamlakatimizda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda
3. Iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirish maqsabidagi vazifalarni gapiring

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**5- Mavzu: Maktabgacha ta’lim va maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish**

**Reja.**

1. Maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar.
2. 2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur

**Tayanch tuhsunchalar:** Maktabgacha ta’lim, maktablarni rivojlantirish milliy dasturi, “Ilk qadam”, “Ilm yo‘li”

8-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash belgilangan. Ushbu standartlarni tasdiqlash bo‘yicha qaror loyihasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tayyorlanib, vazirliklar bilan project.gov.uz orqali kelishilib, hukumatga taqdim etilgan. “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi Qarorga ko‘ra, respublika bo‘ylab davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish rag‘batlantirilib, tijorat banklari va xalqaro moliya

institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish orqali tadbirkorlarga uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratish belgilab qo‘yildi. Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan Janubiy Koreyaning “Chung Construction Design” va Singapurning “Modern Montessori International Group” kompaniyasi bilan quvvati 400 va 200 o‘rinli hamda mos ravishda Toshkent shahrida 3,4 mln. dollar va 1,5 mln. dollar qiymatga teng Janubiy Koreya va Singapur modeli asosida innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladigan maktabgacha ta’lim muassasasini qurish loyihalarini amalga oshirish. Joriy yilning birinchi yarim yilligida respublika bo‘yicha 631 ta oilaviy tipdagi MTTlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularda 19 401 nafar bola qamrab olindi. Natijada nodavlat MTTlarining umumiy soni 1383 taga yetkazilib, ularda 80 ming nafardan ortiq bola ta’lim-tarbiya olmoqda. Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha dastlabki loyihaning ijobiy tajribasini boshqa hududlarda ham tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Joriy o‘quv yilida 2 535 ta guruhda respublika miqyosida 6 yoshli bolalarning 54,2 foizini qamrab olish ko‘zda tutilgan, yil yakuniga qadar esa, mazkur ko‘rsatgich 75 foizga yetkaziladi.

“Ilk qadam” davlat ta’lim dasturi asosida 6 yoshli bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ish daftarlar maketlarini yaratish bo‘yicha, shuningdek, rivojlantirish markazlarida 3-7 yoshdagi bolalar uchun ishlatiladigan ko‘rgazmali didaktik plakatlar to‘plamini yaratish bo‘yicha ishchi guruh tasdiqlandi. Majburiy bepul maktabga tayyorlov guruhlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan “Ilm yo‘li” rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim berish variativ dasturi xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. Shu bilan birga, tayyorlov guruhlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarga metodik ko‘mak berish maqsadida “Pedagoglar va trenerlar uchun “Ilm yo’li” variativ dasturini joriy etish qo‘llanmasi” tayyorlandi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarinig mutaxassislari uchun “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi asosida maxsus ehtiyojga ega 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun

5 ta mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha moslashtirilgan va uyg‘unlashgan ta’lim dasturi yaratildi. Joriy yilning birinchi yarim yilligida Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimidagi 2 895 ta MTTlarini tezkor internetga ulash imkoniyati yaratildi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatini yaratish, har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirish, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish; jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish; o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish; umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish; umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish; o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xalq ta’limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta’lim jarayonlarini jadallashtirish; umumiy o‘rta ta’limda barcha ma’lumot almashinuvi jarayonlarini Xalq ta’limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali

amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari ko‘lamini kengaytirish;

2024 yil 1 sentyabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini, shu jumladan, 2022 yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar uchun, 2023-2024 yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlasin; maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlineedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali: 2022 yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratsin; 2022 yil 1 sentyabrga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinf o‘qituvchilarini Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o‘qitsh. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (Milliy-tadqiqot instituti). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ( Toshkent davlat pedagogika universiteti) hamda uning huzuridagi ta’lim va ilmiy tashkilotlar Xalq ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazilsin. 2023 yil 1 avgustga qadar ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni (keyingi o‘rinlarda – vakolatli xalqaro tashkilotlar) jalb qilgan holda pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy qilsin; 2024 yil 1 yanvarga qadar pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishini sertifikatsiyadan o‘tkazsin. umumta’lim fanlari bo‘yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga har oylik qo‘shimcha ustama quyidagi tartibda to‘lanadi: xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida; xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida. Bunda, milliy baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi vakolatli xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Davlat test markazining milliy baholash

tizimida olingan sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida

Davlat test markazining milliy baholash tizimida chet tili bo‘yicha olingan sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga har oylik qo‘shimcha ustama: 2025 yil 1 yanvarga qadar – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida; 2025 yil 1 yanvardan boshlab – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida to‘lanadi; har oylik qo‘shimcha ustama sertifikat amal qilish muddati davomida, lekin uch yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt mobaynida to‘lanadi; g) umumta’lim fanlari bo‘yicha bir nechta sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga har oylik qo‘shimcha ustama yuqoriroq ustama olish huquqini beruvchi sertifikat bo‘yicha to‘lanadi.

2022 yil 1 dekabrga qadar maktab direktori lavozimiga nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasi bo‘yicha ularga menejerlik sertifikatini berish amaliyotini yo‘lga qo‘ys 2023 yil 1 yanvardan boshlab: maktab direktori lavozimiga nomzodlar menejerlik sertifikatini olish uchun Milliy-tadqiqot institutida maxsus pullik dasturlar asosida jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘nikmalariga o‘qitiladi; o‘qitish yakuni bo‘yicha Milliy-tadqiqot instituti tomonidan maktab direktori lavozimiga nomzodlarning boshqaruv sohasiga oid bilim va ko‘nikmalari baholanadi hamda natijasi bo‘yicha menejerlik sertifikati beriladi.

Maktab direktori lavozimiga nomzodlar faqat menejerlik sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslar orasidan tanlab olinadi va kelishish uchun xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga taqdim etiladi; maktab direktorini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra lavozimdan ozod etish uchun xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari bilan kelishish talab etilmaydi. Xalq ta’limi vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi Moliya vazirligi (T.Ishmetov) 2022 yilda Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasiga Davlat byudjetidan 300 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalari va “Bolalar kutubxonalari” xodimlarining lavozim maoshi miqdori 1,2 baravar.

Maktablarni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo etish orqali esa 2026 yilga qadar 1,2 million, xususan 2022 yilda 141 ming o‘quvchi o‘rnini yaratish Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushi 2022 yilda 3 foizga, 2026 yili 8 foizga yetkaziladi. Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish rejalashtirilmoqda. Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratiladi. O‘qituvchilar oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Jumladan, iqtidorli o‘qituvchilarning ish haqlari malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirib boriladi. Shuningdek, o‘qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish

**Nazorat savollari:**

1. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmuni nimalardan iborat
2. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustvor yo’nalishlar mazmuni nimalarga qaratilgan
3. Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar haqida fikr yuriting

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga

oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**6- Mavzu: Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini va ta’lim sifatini oshirish**

**Reja.**

1. Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish masalasi
2. Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish
3. «El-yurt umidi» jamg’armasi faoliyati

**Tayanch tuhsunchalar:** akademik va moliyaviy mustaqillik, QS va TNE xalqaro reytinglar, «El-yurt umidi» jamg’armasi

Qarorga ko‘ra 2022-yil 1-yanvardan boshlab 35 ta yetakchi davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi. ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash; talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish; ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish; o‘quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish; professor-o‘qituvchilar shtat birliklarini kiritish me’yorlarini ishlab chiqish; o‘z mablag‘lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish; xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish; bo‘sh turgan bino va

inshootlarda pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash; avtotransport vositalarining yo‘l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko‘rsatish talablarini belgilash.

Moliyaviy mustaqil oliy ta’lim muassasalari quyidagi moliyalashtirish tartibiga o‘tkaziladi: barcha ta’lim yo‘nalishlari va bosqichlari bo‘yicha bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdori hisoblab chiqiladi; davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida bir talabaga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib belgilanadi; davlat granti asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun budjet mablag‘lari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida imzolanadigan bitim asosida ajratiladi (bundan maqsadli mablag‘lar, shu jumladan stipendiya to‘lovlari, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasi uchun qonunchilikda belgilangan mablag‘lar, oliy ta’limdan keyingi ta’lim xarajatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladigan boshqa mablag‘lar mustasno); davlat granti asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budjet mablag‘lari (bundan maqsadli mablag‘lar mustasno) oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag‘larning qoldig‘i oliy ta’lim muassasasi ixtiyorida qoldiriladi; davlat buyurtmasi sifatida ajratilgan mablag‘lar hamda to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tegishliligi bo‘yicha yuqori turuvchi vazirlik va idorada ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda ulardan foydalanish budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi uchun belgilangan tartibga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi. Bunda, moliya yili davomida daromadlar va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlar Moliya vazirligi bilan kelishilmaydi; to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zaro raqobat asosida belgilanadi.

Shuningdek, moliyaviy mustaqillik berilayotgan oliy ta'lim muassasalarida: asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag'ning 1 foizi — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo'linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi esa — elektron savdo maydonchasi operatoriga to'langan to'lov chegirilgandan keyin mazkur oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi; asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni (bundan yer, bino, inshootlar, jumladan operativ boshqaruvga berilgan bino va inshootlar hamda o'quv-ilmiy laboratoriya jihozlari mustasno) sotishdan tushgan mablag'lar to'lig'icha o'z ixtiyorida qoldiriladi; moliyaviy nazorat tadbirlarini xolisona va mustaqil o'tkazadigan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkil etiladi; mablag'larning sarflanishi yuzasidan yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) har chorakda belgilangan tartibda hisobot beriladi;

Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar, xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, amalga oshirilayotgan loyihalar hamda tasarrufidagi mablag'lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar o'z rasmiy veb-saytlariga muntazam joylashtirib boriladi; mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lash va stipendiya to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'liq amalga oshirish uchun javobgarlik tegishli oliy ta'lim muassasasi rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ–4391-son qaroriga asosan o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalariga berilgan vakolat va huquqlar ushbu qarorga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etiladi. Bunda: moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet mablag'larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi; talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo'nalish bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi; bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari

kesimida qabul shartlarida to‘lov-kontrakt qiymati tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan kuzatuv kengashlarining quyidagi 10 ta vakolati belgilab berildi: oliy ta’lim muassasasining uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o‘rinlaridan joy olish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish; oliy ta’lim muassasasining o‘rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish; ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul parametrlarini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish; oliy ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi bo‘yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o‘rganish hamda axborotini eshitish; oliy ta’lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o‘tkazish uchun qo‘shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish; oliy ta’lim muassasasini rivojlantirish va moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko‘rinishida maqsadli kapital jamg‘armasini shakllantirish; ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg‘armalar mablag‘larini sarflash tartibi va yo‘nalishlarini mustaqil belgilash; oliy ta’lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o‘qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash; oliy ta’lim muassasasi hamda ular huzuridagi ta’lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o‘qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to‘lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag‘batlantirish tartibini mustaqil belgilash; oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga ularning klinikalarida moddiy-texnik bazani mustahkamlash, shuningdek, kapital va joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun o‘zlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan zarur mablag‘lar sarflashga ruxsat berildi.

Moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalari uchun quyidagi imtiyozlar beriladi: davlat oliy ta’lim muassasalari Soliq kodeksiga muvofiq soliq to‘lashdan ozod etiladi; moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga qonunchilikda oliy ta’lim muassasalari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etiladi; moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga ijtimoiy soliqning 12 foiz miqdordagi stavkasi qo‘llaniladi.

O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli tayyorlash ko’zda tutilgan. Unga ko’ra, oliy ta’lim muassasalarining salohiyati va o’ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo’yicha 5 yilga mo’ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, bu asosda reytinglarga kirishini ta’minlash asosiy vazifa etib belgilangan.

2017 yildan boshlab har yili Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi tomonidan oliy ta’lim tashkilotlari o’rtasida sog’lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko’maklashish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining Milliy reytingi e’lon qilib borilmoqda. Xalqaro tajribalarga ko’ra, dunyodagi nufuzli universitetlar faoliyatining asosiy bosh mezoni, bu — akademik nufuzi, ilmiy tadqiqot faoliyatining natijadorligi va kadrlar sifatidir. Bu ko’rsatkichlar professor-o’qituvchilarning yuqori impakt-faktorli jurnallarda maqolalar chop etishi, iqtiboslik ko’rsatkichlari oshishi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta’lim-fan-ishlab chiqarishning o’zaro manfaatli hamkorligini yo’lga qo’yish orqali amalga oshiriladi. Ta’lim inspektsiyasi hamda mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan ushbu yo’nalishda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda: oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlash faoliyatini takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ijrosi nazoratga

olindi; ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatini doimiy monitoring qilib borish yo'lga qo'yildi; ish beruvchilarning milliy so'rovnomasi joriy etildi;

Yevropa oliy ta'lim sifati kafolati tarmog'i (*ENQA*), Xalqaro ilmiy nashriyot uyi (*Elsevier*) hamda nufuzli xalqaro reyting agentliklari (*QS-Quacquarelli Symonds, THE-Times Higher Education*) ekspertlari bilan bevosita hamkorlikda ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra: ilmiy salohiyat so'nggi besh yilda o'rtacha 6,1%ga oshdi: 2017 yil – 30,3%, 2018 yil – 34,0%, 2019 yil – 34,1%; 2020 yil – 34,5%; 2021 yil – 36,4%; ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati jonlandi va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olgan daromadlari 2017 yildagi 49,7 mlrd. dan 2021 yilda 236,1 mlrd. so'mga yetdi (5 barobarga oshgan); fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga yoki professor unvoniga ega professor o'qituvchilar soni 2790 nafarga (o'tgan yilda 2477 nafar), fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent unvoniga ega professor o'qituvchilar soni 9992 nafarga (o'tgan yilda 8710 nafar) yetdi; dunyoning nufuzli 1000 talik ro'yxatiga kiruvchi OTMlarning PhD yoki DSc ilmiy darajasini olgan professor o'qituvchilar soni 497 nafarga (o'tgan yili 450 nafar) yetdi; nufuzli xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar soni o'tgan yilga nisbatan 1,5 barobarga oshdi, 19981 ta bo'ldi. xorijiy talabalar soni 21,1 foizga ko'paydi va 5768 nafarga yetdi.

Ijobiy o'sish ko'rsatkichlari milliy oliy ta'lim muassasalarimizning xalqaro reytingdagi o'rniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning natijalari yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston milliy universiteti QSning «Matematika» sohasida erishgan natijalariga ko'ra reytingida dunyoning kuchli 500 talik universitetlar qatoridan o'rin oldi. Times Higher Education tomonidan 2022 yil uchun e'lon qilingan Osiyo universitetlari reytingiga 10 ta oliy ta'lim muassasalarimiz kirishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, "Times Higher Education"ning BMT tomonidan 2030 yilga qadar mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining ta'sirini

baholashga qaratilgan 2022 yil uchun "THE Impact Rankings"dan 30 ta oliy ta'lim muassasamiz o'rin oldi. QSning Rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reytingidan O'zbekiston milliy universiteti, «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti va Samarqand davlat universiteti o'rin oldi. So'nggi ikki yil davomida OTMlar filiallari reytingi ham tuzilmoqda. Bundan maqsad – filiallarning ta'lim sifatiga bo'lgan hisobdorligini oshirish va mehnatlarini rag'batlantirish.

Filiallar reyting natijalariga ko'ra top-5 talikda: Yuqori o'rinlarni«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti Buxoro filiali, TATU Urganch va Samarqand filiallari, Navoiy davlat konchilik instituti Nukus filiali, O'zMU Jizzax filiali egalladi. So'nggi o'rinlarda Toshkent kimyo texnologiyalari instituti Yangier va Shahrisabz filiallari, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus va Toshkent filiallari qayd etildi.

Joriy yilning 26 sentyabr kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi tomonidan aniqlangan oliy ta'lim muassasalari milliy reytingi va akademik litseylar reytingini e'lon qilishga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Akademik litseylarda ta'lim sifatiga baho berish to'rtta muhim yo'nalishda 7 ta indikator asosida amalga oshirildi:

- akademik litsey raqobatbardoshligi (akademik litseyga qabulda talabgorlar soni);
- bitiruvchilar erishgan yutuqlar va natijalar (bitiruvchilarning oliygohlarga kirish ko'rsatkichi, nufuzli fan olimpiadalari va musobaqalarda erishgan natijalari, bilim darajasi);
- pedagoglarning sifat darajasi va salohiyati (xorijda nufuzli oliygohlarni bitirgan o'qituvchilar ulushi, ilmiy salohiyat va sertifikatga ega o'qituvchilar);

- ma’naviy-ma’rifiy va o’quv-tarbiyaviy muhit (5 ta tashabbus doirasida erishilgan yutuqlar).

Yakuniy natijalarga ko’ra umumiy reytingda yuqori o’ntalikdan quyidagi akademik litseylar o’rin oldi:

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universitetining "International House-Tashkent”, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseylari; Reytingdagi so’nggi o’rinlarni esa mos ravishdaToshkent kimyo-texnologiya instituti, Qarshi davlat universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent davlat agrar universiteti hamda Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseylari egalladi. Reyting natijalari bo’yicha uzluksiz 3 yil davomida ta’lim sifatiga oid ko’rsatkichlarida salbiy dinamika kuzatilgan so’nggi 5 ta o’rindan birini egallab kelgan akademik litseylar boshqa oliy ta’lim muassasasi tasarrufiga o’tkaziladi yoki boshqa turdagi ta’lim muassasasi sifatida qayta tashkil etiladi.

Prezident tomonidan 11 fevral kuni «Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmon imzolandi. Hujjatda Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha «El-yurt umidi» jamg’armasining (keyingi o’rinlarda – Jamg’arma) qo’shimcha vazifalari belgilandi. Ular jumlasiga quyidagilar kiritildi:

- iqtidorli va istiqbolli davlat xizmatchilarini izlab topish, tanlash va rag’batlantirish;
- yangi avlod kadrlarini shakllantirish va ularni davlat xizmatiga jalb etishga ko’maklashish;
- xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda davlat xizmati va ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etish;
- xorijiy ta’lim, ilmiy va boshqa tashkilotlar, olimlar va ekspertlar, shuningdek vatandoshlar bilan hamkorlikda onlayn platformalarga asoslangan masofaviy

ta’lim dasturlari, o’quv kurslari va boshqa ta’lim, ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalarni amalga oshirish.

***Ma’lumot uchun!*** Prezidentning 3.10.2019 yildagi PF–5843-son Farmoni bilan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha «El-yurt umidi» jamg’armasi Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi ixtiyoriga o’tkazilgan. U Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha «El-yurt umidi» jamg’armasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo’yicha uning huquqiy vorisi hisoblanadi.

Ochiq stipendiya tanlovlari asosida xorijda bakalavriat,magistratura va doktoranturada ta’lim olish dasturlari Jamg’armaning asosiy ta’lim dasturlari (keyingi o’rinlarda – ta’lim dasturlari) hisoblanadi. Dasturlar bo’yicha nomzodlarni saralash tanlovi muntazam ravishda va O’zbekistonning barcha fuqarolari uchun ularning respublikadagi ish va o’qish joyidan qat’i nazar ochiq tarzda amalga oshiriladi. Jamg’arma tomonidan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning to’g’ridan-to’g’ri buyurtmalari asosida istiqbolli va talab yuqori bo’lgan mutaxassisliklar bo’yicha stajirovkadan o’tish dasturlari tashkil etiladi.

Jamg’arma ta’lim dasturlari bo’yicha nomzodlarning ochiq saralash tanlovi quyidagi yo’nalishlar bo’yicha amalga oshiriladi:

- davlat va jamiyat boshqaruvi;
- qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq sohasi;
- ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa ijtimoiy soha tarmoqlari;
- iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari.

Jamg’arma ta’lim dasturlari bo’yicha ta’lim olgan stipendiatlarga stipendiat bilan tuzilgan shartnomada belgilangan tartib hamda muddat mobaynida vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlari hamda davlat ulushi mavjud bo’lgan tashkilotlarda uzluksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi. Stipendiat uzrsiz sababga ko’ra ta’lim dasturlaridan chetlashtirilgan taqdirda yoki Jamg’arma ta’lim dasturlari tugallanganidan so’ng mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortgan

hollarda, Jamg'arma tomonidan stipendiatning ta'lim olishi uchun sarflangan barcha moliyaviy xarajatlar u bilan imzolangan shartnoma shartlariga muvofiq stipendiat tomonidan qoplanadi.

Jamg'armaga, istisno tariqasida, o'z ta'lim dasturlarini tashkil etishi, respublikaga xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb qilishi uchun quyidagilarni amalga oshirmagan holda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat beriladi:

- «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» DUKda import kontraktlari (shartnomalari)ni majburiy tarzda ro'yxatdan o'tkazmagan holda;
- birja tanlovlari va vakolatli organlarda kontraktlar (shartnomalar)ni ekspertizadan o'tkazmasdan.

Bunda import kontraktlarini amalga oshirish muddatlari aynan ushbu kontraktlarda belgilangan muddatlar hisoblanadi.

Quyidagilar tasdiqlandi:

- Jamg'armasi tuzilmasi hamda uning Vasiylik kengashi tarkibi;
- Jamg'arma to'g'risidagi nizom;
- Jamg'arma ta'lim dasturlari bo'yicha nomzodlarni ochiq saralash tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom;
- Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan «Yo'l xaritasi».

«El-yurt umidi» jamg'armasi 2022 yilgi uchinchi stipendiya tanlovini e'lon qildi. 226 nomzodga mo'ljallangan tanlovning 34 o'rni bakalavriat uchun, 95 o'rni magistratura uchun, 97 o'rni esa doktorantura uchun ajratiladi. Hujjatlar 20 sentyabrdan 20 oktyabrga qadar qadar qabul qilinadi. 226 o'ringa mo'ljallangan tanlovning 34 o'rni bakalavriat uchun, 95 o'rni magistratura uchun, 97 o'rni esa doktorantura uchun ajratiladi. «El-yurt umidi» jamg'armasi tanlovida nomzodlar O'zbekiston Respublikasi uchun eng ustuvor sohalar, jumladan:

- kosmik texnologiyalar, nanotexnologiyalar, IT va raqamlashtirish, sun’iy intellekt sohalari;
- atom va quyosh energetikasi hamda energiyaning tiklanadigan manbalaridan foydalanishning boshqa innovatsion yo’nalishlari;
- sog’liqni saqlash, farmatsevtika, telemeditsina, virusologiya, mikrobiologiya, immunologiya sohalari;
- elektroenergetika, neft-gaz, neftь-kimyo, kimyo, metallurgiya sohasining ustuvor tarmoqlari;
- mashinasozlik, avtomobilь, elektrotexnika, to’qimachilik va mahsulotlarni standartlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish kabi muhim mutaxassisliklar bo’yicha ishtirok etadilar.

Nomzodlarning hujjatlari 2022 yil 20 sentyabrdan 20 oktyabrga qadar respublikaning barcha hududlari vakillari uchun yagona tartib va teng imkoniyatlar asosida onlayn rejimda va elektron tarzda qabul qilinadi. Saralash bosqichlari 2022 yil 20 oktyabrdan 20 noyabrga qadar davom etadi. Nomzodlar uchun barcha zarur ma’lumotlar jamg’armaning onlayn hujjat topshirish platformasida batafsil yoritib berilgan. Tanlovda g’olib bo’lgan nomzodlarning xorijiy universitetlarda ta’lim olishlari uchun barcha xarajatlar jamg’arma tomonidan qoplab beriladi. Ma’lumot uchun, 2018 yilda mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish markazi «El-yurt umidi» jamg’armasi etib qayta tashkil etilgandi. O’tgan to’rt yil davomida 1500 nafarga yaqin yoshlar xorijiy davlatlarga o’qish va malaka oshirishga jo’natilgan.

“El-yurt umidi” jamg’armasi eng ustuvor sohalar uchun 420 o’ringa mo’ljallangan ochiq stipendiya tanlovini e’lon qiladi!

Jumladan, 2022-2023-o’quv yili uchun eng nufuzli xorijiy davlatlarda:

- bakalavriat ta’lim dasturi uchun — 120 ta,

- magistratura ta’lim dasturi uchun — 180 ta,

- doktorantura ta’lim dasturi uchun — 120 ta stipendiya ajratishini ma’lum qiladi.

Barcha ta’lim dasturlari bo’yicha nogironligi bo’lganlar uchun ham kamida 20 ta o’rin ajratilib, ularga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Nomzodlarning hujjatlari 2022 yil 10 yanvardan 10 fevralga qadar respublikaning barcha hududlari vakillari uchun yagona tartib va teng imkoniyat asosida elektron tarzda qabul qilinadi. Saralash bosqichlari 2022 yil 10 fevraldan 10 martga qadar davom etadi.

**Nazorat savollari:**

1. Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish masalasida asosan nimalarga e’tibor qaratildi
2. Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun qanday islohotlar amalga oshirildi
3. «El-yurt umidi» jamg’armasi faoliyati nimalardan iborat

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida.
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**7- Mavzu: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish**

**Reja.**

**1.** Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari

2. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari o’qishni tashkil etish.

**3.** Global innovatsion indeksda O’zbekiston Respublikasining o’rnini

**Tayanch tuhsunchalar:** Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari, Oliy ta’limdan keyingi ta’lim, Global innovatsion indeks

Olimlar, iqtisodiy tarixchilar, iqtisodchilar hamda siyosatchilar har doim turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarga qiziqish bildirishgan. Ularning bu sohadagi bahs-munozaralarida texnologiyaning o‘rni doimo ustun bo‘lib kelgan. Iqtisodiy rivojlanishning sabablari va omillarini tahlil qilish davomida, zamonaviy innovatsion iqtisodiy rivojlanish nazariyalari ilk bor XIX asrning o‘rtalaridan boshlanadi. Bular faqat taxminlar edi xolos. 1847-yilda ingliz olimi X. Klark 1793-1847-yillardagi urush o‘rtasida 54 yil o‘tganligini payqadi. Dastlab u bu oraliq tasodifiy emasligini va bunday falokatlarning ma’lum bir sabablari bo‘lishi kerakligini aytadi. Rus iqtisodchisi N.D.Kondratyev dastlab iqtisodiy muhitning uzoq to‘lqinlari muammosiga qiziqib qoldi va ular doirasida innovatsion jarayonlarni tadqiq qildi. N.D.Kondratyev siklli inqirozlarni endogen xarakterga ega bo‘lgan uzoq to‘lqinlar o‘rtasida doimiy bog‘liqlik borligini taklif

qildi va keyinchalik isbotlab beradi. N.D.Kondratyev birinchi bo‘lib uzoq to‘lqinlar qonunlari va iqtisodiyotning ish to‘lqinlari sikllari ta’sirining butun tizim ta’siriga ko‘ra iqtisodiyot harakatining ob’ektiv mohiyatini ko‘rsatdi. Torshteyn Veblen 1915-yilda mamlakatlarning iqtisodiy nisbiy holatini taqqosladi va dastlabki sanoat yutuqlari bilan bog‘liq kamchiliklarni tahlil qildi. N.D.Kondratyev nazariyasining asosini ilmiy-texnik taraqqiyotning shakllari nuqtai nazaridan, barcha zamonaviy innovatsion konsepsiyalarning asoschisi hisoblangan avstriyalik iqtisodchi J. Shumpeterning uzoq to‘lqinlarning innovatsion nazariyasi tashkil qiladi. Ijtimoiy fanlarning dastlabki davrlarida u iqtisodiy, sotsiologik va tarixiy g‘oyalarni birlashtirib, uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘rganishda yuqori darajadagi o‘ziga xos yondashuvni yaratdi hamda innovatsiyalarning hal qiluvchi roli va unga ta’sir etuvchi omillariga e’tibor qaratdi. Shunday qilib, u o‘zini o‘sha paytlarda paydo bo‘lgan neoklassika maktabidan uzoqlashtirdi. Chunki Y. Shumpeter: “iqtisodiy hayot o‘ta inertdir ... shuning uchun statik jarayonlar nazariyasi iqtisodiyotning nazariy asosining mohiyatidir ... erishilgan har qanday muvozanatni buzishingiz mumkin kabi fikrlarini aytgan edi. U tushuntirmoqchi bo‘lgan yangilik “energiya manbai” edi. Innovatsiyalarning o‘ziga xos mazmuni J. Shumpeterning so‘zlari bilan aytganda, “o‘zgaradi” va innovatsiyalarning asosiy vazifasi “o‘zgarishlarni boshqarish funksiyasi”dir . Bu esa yangilikning umumiy va keng ko‘lamidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, innovatsiyani “inson faoliyatining turli turlariga ushbu faoliyat samaradorligini oshiradigan yangi elementlarni (turlarni, usullarni) kiritish” deb tushunish mumkin . Bunday “innovatsion amaliyot” ming yillar davomida mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, innovatsiyalar faqat XIX asr oxiri XX asr boshlarida, innovatsiya nazariyasining asoslarini shakllantirish davrida maxsus ilmiy o‘rganish mavzusiga aylandi. Innovatsiya" so'zi lotincha innovationem so'zidan kelib chiqqan bo’lib - "o'zgartirish yoki modernizatsiya qilish" ma'nosini anglatuvchi innovare fe'lidan olingan. Shunday qilib, innovatsiyalarning markaziyligi va ahamiyati yangilanish bilan bog'liq. Bunday yangilanish faqatgina odamlar qaror qabul qilish uslubini o'zgartira oladigan, standart usullardan voz kechadigan va mavjud me'yor va qoidalar doirasidan

tashqarida tanlov qilishni o'rgangan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

"Innovatsiya" tushunchasi umumiy toifalarga kiradi. Nihoyatda keng va tarkibiy jihatdan murakkab bo'lib, uning mazmunini ochib berishga doir ko'plab yondashuvlar mavjud. Bir tomondan, innovatsiyalarni "o'zgarishlarning funksiyasi" sifatida ko'rib chiqish mumkin . Umumiy keng yoki falsafiy ma'noda innovatsiya - bu jarayon yoki jarayonlar majmui holatining o'zgarishidir. Shu bilan birgalikda yangilik hamda rivojlanishning bir bo'lagi hisoblanadi. Innovatsiya ta'rifidan ko'rinadiki, undan jamiyat hayotining barcha sohalarida jarayon sifatida foydalanish mumkin. Har bir sohada innovatsion rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshqa tomondan, innovatsiya jarayon sifatida innovatsiya mahsulot (yakuniy natija) tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Qoida tariqasida mahsulot sifatida innovatsiya so'zining tor ma'nosida mavzuli segmentlangan sohalarda ko'rib chiqiladi. E'tibor berilsa, bizning tadqiqotimizning chegaralari iqtisodiy sohada amalga oshirilgan yangiliklardir.

oliy ta'limdan keyingi ta'lim — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalarida tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi;

stajyor-tadqiqotchilik — ishlab chiqarishdan ajralgan holda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash shakli;

tayanch doktorantura — falsafa doktori (Doctor of Philosophy

(PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

doktorantura — fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

mustaqil izlanuvchilik — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

stajyor-tadqiqotchi — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga stajyor-tadqiqotchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

doktorant — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

mustaqil izlanuvchi — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

izlanuvchi — falsafa doktori(PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs.

oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (keyingi o'rinlarda — Yagona elektron tizim) — oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish, stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejalari bajarilishi bo'yicha hisobotlarni

shakllantirish bo'yicha hujjatlarning elektron almashinuvini tashkil etishga mo'ljallangan axborot tizimi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik; Stajyor-tadqiqotchilik instituti oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari huzurida fan va texnikaning muhim tarmoqlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish maqsadida ochiladi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni (O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bundan mustasno) oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga fuqarolar bilan teng huquqlarda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya vizasiga ega bo'lgan xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga kirishga va ta'lim olishga haqli.

Innovatsiyalarni joriy qilish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida ixtisoslashtirilgan muassasalarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, "Global Innovation Index" xalqaro reytingidagi mamlakatimiz ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, ilm-fan va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Sanoat va hududlarni innovatsion jihatdan rivojlantirishning joriy holatini tahlil qilish hamda yuqori texnologiyali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga

yo'naltirilgan loyihalar sonini ko'paytirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, innovatsion rivojlanishga mas'ul bo'lgan davlat organlari rahbarlari hamda ilm-fan va ta'lim muassasalari rahbarlarining ish samaradorligini baholash topshirildi.

Vazirlik va idoralar rahbarlariga 2022 yilda innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi "Yo'l xaritalari"ni tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, 2023 yilga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish dasturlarini shakllantirish va ko'rib chiqish uchun taqdim etish topshirildi.

Mahalliy hokimiyat organlariga innovatsion hududlar sifatida qo'shimcha tuman (shahar)larni aniqlash hamda 2022-2023 yillarda ushbu zonalarni rivojlantirish bo'yicha aniq dasturlarni shakllantirish yuzasidan takliflarni kiritish topshirildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligiga, keyinchalik Respublika rahbariyatiga taqdim etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlantirish strategiyasi loyihasini tayyorlash topshirildi xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirishning hozirgi holati ham muhokama qilindi. Joriy yilning yanvarь-fevralь oylarida xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan 105 loyiha uchun 296 million dollar o'zlashtirilgani, bu rejalashtirilgan parametrlarning 100 foizini tashkil etgani ma'lum qilindi.

Shu bilan birga, suv ta'minoti, gidroenergetika, temir yo'l transporti va sog'liqni saqlash sohalarida ko'rib chiqilayotgan bir qator loyihalar uchun loyihaoldi hujjatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarning borishi tanqidiy ko'rib chiqildi. Farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalarida loyihalarni hayotga joriy etishning amaliy jihatlari muhokama qilinib, bir qator mas'ul xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rildi.Vazirlik va idoralar kesimida joriy yil oxirigacha ishga tushirilishi lozim bo'lgan 2,4 milliard dollarlik 29 loyihani amalga oshirilishi ko'rib chiqildi.

Bundan avval mamlakatimiz reytingda 2020 yil 93-oʻrin va 2015 yilda 122 oʻrinlarni egallagan edi.

Global innovatsion indeksi 20 sentyabr sanasida e'lon qilgan nashrining nomi "COVID-19 inqirozi orqali innovatsiyalarni kuzatish" boʻlib, hisobot COVID-19 inqirozning global innovatsiya koʻrsatkichlariga ta'sirini baholaydi. Global innovatsion indeks (The Global Innovation Index) 81 ta koʻrsatkichdan iborat va ular iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida boʻlgan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishini tavsiflaydi. Mazkur indeks ikki subindeks koʻrsatkichlarining oʻrtacha qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Birinchi subindeks innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar (Innovation Input) – institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, ichki bozor va biznesning rivojlanish darajasi kiradi. Ikkinchi subindeks esa innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Input) – texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi hamda ijodiy faoliyat natijalarini oʻz ichiga oladi. Mamlakatimiz innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar subindeksida oʻtgan yilgi natijalaridan 6 pogʻona koʻtarilib 75 oʻrinni; innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar subindeksida esa 18 pogʻona koʻtarilib 100-oʻrinni egalladi. Reytingga koʻra, Oʻzbekistonning dunyo miqyosida kuchli indikatorlari quyidagilar: "Ilm-fan va muhandislik sohasida bitiruvchilar soni" - 7-oʻrin, "Biznesni yoʻlga qoʻyishning soddaligi" - 8-oʻrin, "Mehnat unumdorligi" - 8-oʻrin, "Kapitalni yalpi tarzda toʻplash" - 7-oʻrin, "Ta'lim uchun davlat xarajatlari" - 28-oʻrin.

Quyi oʻrta daromad guruhi davlatlari orasida Oʻzbekiston 2021 yil 10-oʻrinni egalladi. Mazkur guruh mamlakatlari orasida Oʻzbekiston institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, va ichki bozorning rivojlanish darajasi yoʻnalishlarida yetakchi qatorlarini egallab turmoqda. Global innovatsion indeks reytingida Shveysariya — 1-oʻrin, Xitoy — 12-oʻrin Rossiya — 45-oʻrin, Qozogʻiston — 79-oʻrin, Qirgʻiziston — 98-oʻrin, Tojikiston — 103-oʻrinni egalladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tegishli davlat boshqaruv organlari va idoralari hamda xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda soʻngi yillarda Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va Global innovatsion

indeks reytingida o‘rnini yaxshilashga qaratilgan salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Natijada, mamlakatdagi innovatsion faoliyatda tub ijobiy burilishlar xalqaro tashkilotlar tomonidan muntazam tarzda e’tirof etib kelinmoqda. Reytingning bu yilgi sonida mamlakatimizning O‘rta Osiyo va Janubiy Osiyo davlatlari ichida 4-o‘rinda ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va innovatsion rivojlanishda milliy o‘lchamlarni to‘g‘ri belgilab olish, mamlakatning xalqaro miqyosda innovatsion rivojlanishini ta’minlash uchun 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan va undagi asosiy vazifalardan biri etib 2030 yilga qadar respublikamizni Global innovatsion indeks baholash reytingida yetakchi 50 ta davlat qatoriga kiritilishi qat’iy belgilab berilgan.

**Nazorat savollari:**

**1.** Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari nimadan iborat
2. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari o’qishni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar
**3.** Global innovatsion indeksda O’zbekiston Respublikasining o’rnini eganlik darajasini ayting

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.

6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**8- Mavzu: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash**

**Reja.**

1. O’zbekistonda fuqarolar pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish
2. Aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish
3. O’zbekistonda sog’liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasi

**Tayanch tuhsunchalar:** pensiya ta'minoti, tibbiy xizmat sifatini oshirish, saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasi

Dunyo mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini ijtimoiy ta'minotning minimal halqarome'yorlariga moslashtirish va ijti-moiy-iqtisodiy adolat printsiplarini ta'-minlashga qaratilgan qator ilmiy tadqiqot-lar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda pensiya yoshini oshirish, munosib pensiya miq-dorlariga erishish, pensiya tayinlashda ish sta-jini hisobga olish tartibini takomillashti-rish, pensiya to'lovlarini samarali moliyalash-tirish, pensiya fondlarining investitsion fao-liyatini kuchaytirish kabi masalalar o'z yechimi-ni topgan. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta tizi-mini takomillashtirish, pensiya tayinlash ti-zimining shaffofligini oshirish, pensiyalar-ni hisoblab chiqarish tartibini takomillash-tirish hamda ko'p darajali pensiya tizimini joriy qilish masalalari pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotini ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Ammo, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'-minlash, pensiya miqdorlarini minimal iste'-mol xarajatlariga muvofiqlashtirish, pensiya-ning bazaviy miqdorini aniqlashni takomil-lashtirish, o'quvchilarga boquvchisini yo'qotgan-lik pensiyasini to'lash, ayollarga pensiya tayin-lashda bola parvarishida bo'lgan davrni hisob-ga olishni takomillashtirish, xususiy pensiya fondlarini tashkil etish, jamg'arib borila-digan pensiya tizimini takomillashtirish, pensiya yoshini oshirish bilan bog'liq masalalar hanuzgachao'zining ijobiy yechimini topmagan.

Iqtisodchi olim-lar tomonidan pensiya ta'minoti tizimi, uning tarixi va taraqqiyoti, rivojlantirish yo'nalishlari, pensiya modellari turlicha tal-qin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Pensiya atamasi lotincha «pensio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «to'lov» ma'nosini anglatadi. Eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Rimda bi-rinchi marta harbiy xizmatni o'tay olmaydigan keksa yoshdagilarga va janglarda jarohat olgan harbiylarga pensiyalar –muntazam to'lovlar joriy etilgan. Ko'plab manbalarda pensiyalar G.Yu.Tsezar tomonidan harbiylar uchun o'ylab topilganligi qayd etilgan» . Arizona universiteti professori Jun Peng tadqiqotlarida pensiyalar pensionerlarning davriy daromadlari, kechiktirilgan to'-lovlar, fuqaroning mehnatga layoqatsizligi tufayli yo'qotilgan ish

haqi uchun kompensatsiya ekanligi qayd etilgan hamda ijtimoiy havfsizlik nuqtai nazaridan talqin qilingan . Ijtimoiy sug'urta sohasida yirik olim V.Roikning fikricha, pensiyalar fuqarolarga keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo'qot-ganida moddiy jihatdan ta'minlanmaslik riskidan ijtimoiy himoya qilishning muhim shakli bo'lib, yo'qotilgan ish haqi (daroma-di)ning bir qismini qoplanishiga mo'ljallangan oylik pulli to'lovlardir. Bu esa fuqaro-larning keksalik davrida yashashlari uchun yetar-licha shart-sharoitlar yaratilishini yoki ular-ning ijtimoiy xavfsizligi ta'minlanishini anglatadi.O.Bismark tomonidan yaratilgan pensiya modeli (Bismarkmodeli –pay-as-you-go) «avlodlar birdamligi»ga asoslangan «taqsimlanuvchi» pensiya tizimini nazarda tutadi, ya'ni hozirgi pensionerlarning pensiyasi ho-zirgi ishlayotgan avlod tomonidan to'lanadi. Biroq, o'sha davrlarda jami aholi tarkibida keksalar soni katta ulushga ega bo'lmagan va davlat tomonidan ularni pensiya bilan ta'minlashda moliyaviy muammolar ham yuzaga kelma-gan. Ushbu model esa demografik omillarga to'g'-ridan-to'g'ri bog'liqdir. U.Beveridj tomonidan yaratilgan model esa ijtimoiy sohada davlatning rolini kuchaytirish zarurligini nazarda tutadi. Uning asos-chisi Angliyalik iqtisodchi, 1942 yilda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug'urta tizimining asoslarini yaratgan U.G.Beveridj hisoblanadi. Uning fikricha, oilalar uchun ijtimoiy nafa-qalar(yordam), milliy sog'liqni saqlash tizimi davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi zarur, ammo, ijtimoiy himoyaning boshqa tadbirlari ish beruvchilar va ishchilar hamda davlat subsidiyalari hisobidan ajratmalar asosida amalga oshirilishi kerak. Beveridj modelining o'ziga xos xususiyati: davlat – barcha aholining ijtimoiy himoyasini kafolatlashi; ish beruvchi –yollanma ishchilarning ijtimoiy sug'urtasini amalga oshirishi; ishchi –qo'shimchashaxsiy sug'urtalashni amalga oshirishi zarur.So'nggi yillarda himoya qilingan disser-tatsiyalarda byudjetdan tashqari Pensiya jam-g'armasining moliyaviy barqarorligini ta'-minlash va oshirish, nodavlat pensiya ta'mi-noti va investitsion faollikni oshirish, pensiya tizimi daromadlarini ijtimoiy ta'-minot va investitsion faoliyatga samarali sarflash, fuqarolar yoshiga doir pensiya ta'-minotining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Yuqoridagi iqtisodchi olim-larning ilmiy asarlarida, aynan, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish muammolarini o'rganishga keng e'tibor qara-tilmagan hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar-ning pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish

2010-2021 yillar davomida iqtisodiyotda bandlar soni 17 foizga o'sgan bir paytda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni-ning o'sish darajasi 24,2 foizga teng bo'lgan; –huddi shu davrda 55 yoshdan oshgan ayol-lar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish darajasi 80,4 foizga teng bo'lgan;–demak, ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish sur'atlari pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'atlaridan yuqoribo'l-gan, bir vaqtning o'zida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'atlari iqtisodiyotda bandlar sonining o'sish sur'atla-ridan yuqoridir;–shuni alohida qayd etish kerakki, 2010-2021 yillar davomida 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sib borishi qat'iylik (barqarorlik) xarakte-riga ega. CHunki bunday dinamika shu oraliqda-gi yillarning barchasida kuzatiladi;–2010-2021 yillar mobaynida barcha omillarning ta'siri ostida tayinlangan o'r-tacha oylik pensiya miqdori 5,38 martaga o'sgan bir sharoitda o'rtacha oylik ish haqi 6,34 marta-ga o'sgan, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining o'sish sur'atlari tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan;–huddi shu davrda jami pensionerlar tarkibida to'liqsiz staj bilan pensiya oluvchi-lar salmog'i 26,5 punktga yoki 10,8 martaga oshgan.Umuman, pensionerlar sonining o'sib bo-rishi aholining tabiiy ko'payishi darajasi-ning yuqoriligi hamda umr ko'rish davrining uzayib borayotganligini ko'rsatadi. 1991-2020 yillar davomida, ya'ni 30 yil ichida tug'ilish-lar soni 16,4 foizga oshgan. 2010yil-2021 yil1.Jami aholi, ming kishi28 001,434 558,92.Iqtisodiy faol aholi, ming kishi12 286,615 022,83.Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi 11 628,413 609,14.Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni, mingkishi3 265,84 056,85.55 yoshdan oshgan ayollar soni, ming kishi 1 336,72 393,16.60 yoshdan oshgan erkaklar soni, ming kishi728,31 331,57.O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda 504,83 200,08.Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya

miqdori, ming so'mda 171,9924,79.O'rtacha umr ko'rish davomiyligi, yilda (yosh)73,074,6 Aholi umr ko'rish davrining uzayib bori-shi bilan pensiya oluvchilar sonining tabiiy ravishda ko'payishi Pensiya jamg'armasida ular-ning moliyaviy ta'minotini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moliyaviy resurslar (da-romadlari) bo'lishini taqozo etadi. So'nggi yillarda soliq tizimidagi islohotlar nati-jasida 2019 yil 1 yanvardan –fuqarolarning mehnatga haqto'lash tu-ridagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan su-g'urta badallari bekor qilindi (2019 yilgacha fuqarolarning oylik daromadidan 8% miqdo-rida sug'urta badali to'langan); –davlat maqsadli jamg'armalariga yuri-dik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiri-ladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi (korxona 3,2% miqdorda majburiy ajratma amalga oshirilgan, jamg'armaga ulushi 1,5% tashkil etgan); –xususiy korxonalar, shuningdek ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foizdan kam bo'lgan yuridik shaxslarga yagona ijtimoiy to'-lov stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasayti-rildi.Shuningdek, 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab Pensiya jamg'armasi hisobiga to'langan yagona soliq to'lovi summasi mahalliy byudjetlariga o'tkazildi hamda 2020 yil 1 yanvardan boshlab davlat korxonalari, davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga pasaytirildi. Natijada Pensiya jamg'arma-si daromadlarini shakllantirish manbalari-ning 3 ta yo'nalishi bekor qilindi, ayrimlari qisqardi. Agar 2010-2018 yillarda Pensiya jamg'armasiningo'z daromadlari pensiya to'lov-larini moliyalashtirish uchun yetarli bo'lgan bo'lsa, 2019 yildan boshlab Pensiya jamg'armasi byudjetida defitsit yuzaga kelgan. Pensiya jam-g'armasidaromadlarini shakllantirishdagi jiddiy o'zgarishlarni hamda 2019-2028 yillar mobaynida yiliga o'rta hisobda 335297 nafar fuqaroga yangi pensiyalar tayinlanishini ham hisobgaoladigan bo'lsak, defitsit darajasi o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda Ijtimoiy ta'minotning minimal xalqa-ro me'yorlariga ko'ra, pensiya tizimida qopla-nish koeffitsienti 40 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etilgan. Ammo, O'zbekistonda 2010 yil-dan to 2021 yilgacha bo'lgan davrlarning biror-tasida hampensiya tizimida qoplanish koeffi-tsienti 40

foizlik darajani qayd etmagan. Jumladan, 2010-2021 yillar davomida ushbu koeffitsient o'rtacha 35,4 foizni tashkil etib, talab etilgan xalqaro me'yordan 4,6 f.p.ga kam . Ushbu holat hanuzgacha munosib pensiya miqdorlariga erishilmaganligini ko'rsatadi va pensionerlarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish nuqtai nazaridan salbiy omildir. Pensiya tizimida qoplanish koeffitsienti[19]Pensiya tizimida qoplanish koeffitsien-tining mavjud holati tayinlangan pensiya miqdorlarining ham kichikligini ko'rsatadi. Pensiya miqdori, eng avvalo, ish staji davriga bog'liq bo'lib, erkaklar –60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda hamda ayollar –55 yoshga to'lganda va ish stajla-ri kamida 20 yil bo'lgan taqdirdaega bo'ladilar. Ammo, O'zbekistonda 2010 yil 1 yanvarь holatigaish staji to'liq bo'lmagan pensiya oluv-chilar soni jami pensiya oluvchilarning 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yil 1 yanvarga kelib, 29,2 foizga yetgan, ya'ni 2010-2021 yillar davomida jami pensionerlar tar-kibida ish staji to'liq bo'lmagan pensiya oluv-chilar salmog'i 26,5 punktga yoki 10,8 martaga

Iqtisodiyot va ta'lim / 2022 yil Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya oluvchilarning jami pensionerlar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi (foiz hisobida) Bunday o'sishni, asosan, ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanmaslik hamda korxona-lar tomonidan ish staji va ish haqi to'g'risida-gi ma'lumotlar arxiv idoralariga topshiril-maganligi bilan asoslash mumkin. Bir vaqt-ning o'zida bunday holat boshqa omillar bilan bir qatorda (norasmiy ishsizlik va boshq.) mam-lakatda o'rtacha pensiya miqdorining ham kama-yishiga olib kelgan. Chunki, amaldagi qonunchi-likka ko'ra, pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshgadoir pen-siyalar mavjud stajga mutanosib miqdorda hisoblab chiqiladi. Oqibatda, kam miqdorda pen-siya oluvchi fuqarolar soni ko'payib boradi. Bu, o'z navbatida, davlat tomonidan kam miqdorda pensiya oluvchi fuqarolarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur choralar ko'rilishini taqozo etadi. Ana shunday chora-tadbirlardan biri mamlakatimizda mi-nimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisob-lash tartibining amaliyotga joriy etilganli-gidir. 2021 yil 1 iyuldan boshlab

kambag'al-likni qisqartirish va ehtiyojmandoilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashborasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish, aho-lining kambag'al qatlamini aniqlashuslubini amaliyotga joriy etish maqsadida aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblashtartibiishlab chiqildi. O'zbekistonda 2010-2021 yillar davomida yoshga doir pensiyalarning eng kam miqdori qariyb5,8 barobarga o'sib, 97285 so'mdan 565000 so'mga yetgan. Bunday tendentsiya eng kam pen-siya oluvchilarning moddiy ahvolini yaxshilash va ularning turmush farovonligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiy holatdir. Ammo, ho-zirda ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya-larning eng kam miqdori yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan (282500) kam bo'lmas-ligi lozim va bu ko'rsatkich 2021 yil 1 iyuldan joriy qilingan minimal iste'mol xarajatla-ri qiymatining 64,2 foizini tashkil etadi. Bu esa hanuzgacha mamlakatimizda munosib pensiya miqdorlariga erishishning aniq me'yorlari ishlab chiqilmaganligini yana bir bor tasdiq-laydi.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pensiya miqdoriga o'rtacha ish haqi miqdori faol ta'sir ko'rsatadi. Lekin masalaning ik-kinchi tomoni ham bor, ya'ni pensiya miqdorini hisoblashuchun pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan pensiyani hisoblash bazaviy miq-dorining 10 baravari miqdoridan ortiq bo'l-magan summadagi o'rtacha oylik ish haqining qabulqilinishi. Xususan, pensiya miqdorini hisoblashda olinadigan o'rtacha oylik ish haqi-ning maksimal chegarasi belgilangan (cheklov o'rnatilgan). Bunday cheklov ish haqi miqdori-ning yuqoriligi pensiya miqdorining ham yuqo-ri bo'lishini ta'minlashga to'sqinlik qiladiva ijtimoiy-iqtisodiy adolat printsiplariga mos kelmaydi. O'z navbatida, o'rtacha oylik pen-siya miqdoriga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda pensiya tayinlashda ish staji bilan bog'liq bo'lgan va uning ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lmagan ayrim jihatlari ham mavjud. Masalan, bola 3 yoshga to'lguncha bolani parvarishlash ta'tillarida bo'lish vaqti pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlariga kiradi. Ammo, bu muddatning hammasini jamlaganda ko'pi bilan 3 yil bo'lishi kerak. Demak, ayollar qanchavaqt bola parvarishlash ta'tillarida bo'lishidan qat'iy nazar, faqat 3 yili pensiya hisoblashda mehnat stajiga qo'shiladi. Masalan, 28 yil ish bilan band bo'lgan

ayolning 9 yili jami 3 ta bolani parvarishlash ta'tillarida bo'lgan bo'lsa, u holda unga jami 22 yil ish staji hisoblanadi (28 yil–9 yil+3 yil=22 yil).

Davlatimiz rahbarining «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi Farmoni sohada amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Farmon bilan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda «tibbiyot brigadalari» faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari tomonidan aholiga yanada sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini kengaytirish uchun 2021 yil 1 iyuldan boshlab 10 mingta, 2022 yil 1 yanvardan boshlab esa, yana qo'shimcha 10 mingta o'rta tibbiyot xodimlari shtatlari ajratilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, markaziy tuman (shahar) shifoxonalarining Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan amaldagi koykalar fondining 10 foizi 2022 yil 1 yanvardan boshlab, yana qo'shimcha 10 foizi 2023 yil 1 yanvardan boshlab to'lov asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga ta'minlanadigan koykalar fondiga o'tkazilmoqda. Albatta, biz bugungi kunda sifatli tibbiy xizmat tizimini yo'lga qo'yishni istar ekanmiz birinchi navbatda tizimni eng so'nggi zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashimiz buning uchun esa byudjetdan ajratilayotgan mablag' hajmini ko'paytirishimiz darkor.

Mazkur hujjat bilan shuningdek, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha qabul kvotasini ikki baravarga oshirish, hududga zarur bo'lgan tor mutaxassislikdagi shifokorlarni tayyorlash uchun tegishli mahalliy byudjetdan yetarli miqdorda grant ajratish tizimi yo'lga qo'yilishi belgilandi. Mazkur grant asosida ta'lim olgan bitiruvchilarga tegishli hududga borib, uch yil ishlab berish majburiyati yuklatiladi. Hududga faoliyat yuritish uchun yuborilgan tor mutaxassislikdagi shifokorlarning yashash xarajatlari mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

2021 yil 1 iyuldan boshlab esa, hamshiralik ishi o’zini o’zi band qilgan shaxslar shug’ullanishi mumkin bo’lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro’yxatiga kiritilmoqda. Hamshiralar uchun yaratilgan bunday qulaylik ular faoliyatini amalga oshirishi uchun bir qator majburiyatlar ham yuklamoqda. Xususan, hamshiralik ishi faoliyatini faqat o’rta tibbiy yoki oliy hamshiralik ishi yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotga ega Sog’liqni saqlash vazirligining tegishli axborot tizimida 2022 yil 1 yanvardan boshlab ro’yxatdan o’tgan shaxslargina amalga oshiradi. Hamshiralik ishi faoliyati bilan shug’ullanayotgan shaxs belgilangan muddatlarda o’z malakasini oshirib borishi zarur.

Shu bilan birga, Sog’liqni saqlash vazirligida Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo’llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg’armasi tashkil etilmoqda. Bir so’z bilan aytganda, Farmon bilan aholiga kafolatli tibbiy xizmat ko’rsatish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag’batlantirish, zamonaviy texnologiya va davolash usullarini keng joriy qilish borasida bir qator tizimli chora-tadbirlar belgilab berilmoqda. Galdagi vazifa esa, biz xalq vakillari mazkur ishlarning o’z vaqtida tizimli amalga oshirilishini nazorat qilishdan iboratdir.

O’zbekistonda sog’liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Quyidagilar:

a) Sog’liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2021–2025 yillarga mo’ljallangan strategiyasi (E-Health-2025) quyidagilarni nazarda tutgan holda:

elektron sog’liqni saqlash tizimi normativ-huquqiy bazasini optimallashtirish;

sog’liqni saqlashning axborot tizimi Yagona platformasining arxitekturasi, axborot tizimlarga ma’lumot uzatishning minimal talablari, tibbiy ma’lumot almashinuvi milliy standartlarini hamda klinik ma’lumotlar bazasi xavfsizligi standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

Yagona platformani ishlab chiqish hamda uning davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash; birlamchi tizimda bemorlarni oilaviy shifokorlarga biriktirish va qayta biriktirish, qabulga

yozish imkoniyatlarini beruvchi Tibbiyot axborot tizimini yaratish; “Davlat tibbiy sug’urta jamg’armasi” axborot tizimini ishlab chiqish; “Diagnostik tasvirlar almashinuvi va teleradiologiya (e-emaging)” milliy axborot tizimini yaratish; “Diagnostik tasvirlar arxivi tizimi”ni tibbiyot muassasalarida joriy qilish; “Idoralararo telemeditsina” xizmatlarini rivojlantirish; hududlarda “103” tez tibbiy yordam boshqaruv markazining yagona tizimini joriy qilish; “Farmatsevtika mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish” axborot tizimini yaratish; tibbiyot muassasalari tomonidan ko’rsatilayotgan xizmatlari uchun “Tibbiy axborot tizimini” yaratish; “Laboratoriya” axborot tizimini yo’lga qo’yish; tibbiyot xodimlari kasbiy salohiyati va malakasini oshirishga mo’ljallangan “Elektron ta’lim” platformasini yaratish; davlat sog’liqni saqlash muassasalari uchun standartlashtirilgan “Muassasa resurslarini rejalashtirish tizimi (ERP)”ni joriy qilish; “Elektron retsept” axborot tizimini yaratish; “Elektron yo’llanma” axborot tizimini yaratish va bu orqali order berish tizimini bekor qilish; ona va bola salomatligi pasportining elektron tizimini yaratish; bemorlarga mobil ilova va internet tizimi orqali maslahat berish uchun virtual yordamchi (chatbot xizmatlari)ni joriy qilish; tibbiyot sohasida statistik ma’lumotlarini yig’ish, tahlil qilish va saqlash, ularning hisob va hisobotini yuritish; sog’liqni saqlash milliy hisobvaraqlari yuritish yagona elektron tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

b) Sog’liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2021–2025 yillarga mo’ljallangan strategiyasini (Ye-Health-2025) amalga oshirish bo’yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.

Quyidagilar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo’nalishlari etib belgilanadi: elektron sog’liqni saqlash tizimini boshqarish va yetakchilikni rivojlantirish; axborot tizimlari, resurslar va sog’liqni saqlash milliy ma’lumotlar bazalarini yaratish, rivojlantirish va kuzatib borish bo’yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; tibbiyot muassasalarida IT infratuzilmani (optik tolali internet, ichki lokal tarmoq, kompьyuter va axborot texnikalari)ni

rivojlantirish, PACS serverlar xarid qilish va o’rnatish hamda mamlakatning markazlashgan ma’lumotlarni qayta ishlash markazi resurslaridan foydalanishni yo’lga qo’yish; axborot xavfsizligi talablariga rioya qilinishini nazorat qilish va monitoringini olib borish, axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarini muhofaza qilish bo’yicha texnik infratuzilmani tatbiq etish va rivojlantirish; “elektron sog’liqni saqlash” tizimining normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish, integratsiyalashgan axborot tizimlari kompleksini ishlab chiqish, joriy etish va kuzatib borish; tibbiyot tashkilotlarida axborot tizimlari, ilg’or axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va kuzatib borishga ko’maklashish; aniq ma’lumotlarga asoslangan holda qarorlar qabul qilish uchun tibbiyot muassasalarining imkoniyatlarini kengaytirish; vazirlikning axborot tizimlari, resurs va ma’lumotlar bazasini rivojlantirish, standartlashtirilgan axborot almashuvi tizimlarini yo’lga qo’yish orqali ularning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta’minlash; vazirlik xodimlarining axborot tizimlari, resurs va ma’lumotlar bazasidan foydalanish, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi salohiyatini rivojlantirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; camarali elektron tibbiy xizmatlar ko’rsatish orqali shifokor va bemorlarning tibbiy salohiyatini oshirish.

**Nazorat savollari:**

**1.** O’zbekistonda fuqarolar pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish bo’yicha qanday ishlar olib borilmoqda
2. Aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar nimadan ibotar
3. O’zbekistonda sog’liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasidagi asosiy masalalarni ayting

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**9- Mavzu: Mamlakat axolisi o'rtasida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi isloxotlar.**
**Reja.**

1. Taraqiyot strategiyasida aholisi o'rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi isloxotlar.
2. Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish
3. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish

**Tayanch tuhsunchalar:** aholisi o'rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasi, yoshlari o'rtasida milliy sport turlari, Olimpiya va Paralimpiya.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish. Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish. O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish. Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish. Barpo etiladigan har bir «Yashil hudud»da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun «Salomatlik yo'laklari» hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o'rtasida musobaqalar tashkil qilish. Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. Sport o'yinlari o'tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash. Milliy olimpiada o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish. Milliy olimpiada o'yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritishini tashkil etish.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022 yilda 62 foizga, 2026 yilda 85 foizga oshirish. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta'limi muassasalariga jalb etish.

Olimpiya o'yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol, gandbol, basketbol,

voleybol, regbi, chim ustida xokkey, badminton, suv sporti turlari) va boshqa sport turlarini rivojlantirish. Jamoaviy va boshqa sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash.

Yozgi paralimpiya sport turlarini rivojlantirish. Bunda: paralimpiya sportchilari orasida sog'lom turmush tarzini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish. Xususan, mazkur tashabbusni xalqimizning imkoniyati cheklangan vakillari qatlamida targ'ib qilish; paralimpiya sport turlari ro'yxatiga kiritilgan sport turlarini sport ta'lim muassasalarida tashkil etish orqali Parij-2024 Paralimpiya o'yinlariga 100 dan ortiq litsenziyalarni qo'lga kiritish.

Yoshlarni sportga jalb etish va ularni qamrab olish. 2026 yilga qadar qishki va ekstremal sport turlari, shu jumladan tog'-chang'i sportini rivojlantirish maqsadida eng ilg'or va innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda salohiyatli hududlarda zarur infratuzilmani yaratish. Mavjud salohiyat va imkoniyatdan kelib chiqib, hududlarni qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirish. Qishki sport turlariga ixtisoslashtirilgan hududlarda tegishli sport turlarini rivojlantirish, milliy jamoa a'zolarini shakllantirish va 2023 yildan boshlab, xalqaro musobaqalarda ularning ishtirokini ta'minlash. Qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, 2026 yildagi qishki Olimpiya o'yinlariga kamida 10 ta litsenziyani qo'lga kiritish

Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun:

1. Quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin**:** mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash**,** shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tegishli sport infratuzilmasini yaratish; aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar

o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ular o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish orqali yoshlarning ommaviy sportdagi ulushini oshirish; ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanuvchi oilalarga mahallalar va istirohat bog'larida sharoit yaratish va oilaviy sportni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish; ommaviy sport tadbirlari davomida o'quvchilari g'olib va sovrindor bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari mehnatini munosib rag'batlantirish va ularning faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish.

2. Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalq salomatligi milliy kengashi (A.N. Aripov): yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga keng jalb qilish, shu jumladan, mazkur Dasturda belgilangan vazifalarning to'liq va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul vazirlik, idora va mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirsin; mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini samarali tashkil etsin, ularga uslubiy ko'maklashsin va musobaqalar samaradorligini baholash reyting tizimini joriy qilsin; ommaviy sport musobaqalari tashkil qilinadigan olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari ro'yxatini tasdiqlasin; yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosini va har yili ikki mavsumda ommaviy sport musobaqalari o'tkazilishini ta'minlasin hamda barcha bosqich natijalarini tahlil qilsin va tizimli monitoringini olib borsin; ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilsin, yo'l xaritalari, dasturlarni tasdiqlasin hamda bajarilishi ustidan nazorat o'rnatsin.

4. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2022 yildan boshlab har yili an'anaviy tarzda 30 iyun – O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabrь oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol,

**ye**ngil atletika**,** shaxmat**,** shashka**,** stol tennisi**,** stritbol**,** vorkaut turlari bo’yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o’tkazish tizimi joriy etiladi:

birinchi bosqichda – ko’chalararo mahalla musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – mahallalararo sektor musobaqalari;

uchinchi bosqichda – sektor musobaqalarida g’olib bo’lgan mahalla jamoalari o’rtasida tuman (shahar) musobaqalari;

to’rtinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari g’olib mahalla jamoalari o’rtasida viloyat musobaqalari;

beshinchi bosqichda – viloyat musobaqalarida g’olib bo’lgan mahalla jamoalari o’rtasida respublika (final) musobaqalari.

Bunda, mazkur kichik bandda ko’rsatilgan ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san’at, intellektual o’yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo’yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli **“**Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o’tkaziladi;

b) 2023 yil 1 martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo’yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o’tkazish tizimi joriy qilinadi:

birinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – viloyat musobaqalari;

uchinchi bosqichda – respublika (final) musobaqalari.

Sportni rivojlantirish vazirligi (A.Ikramov) olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo’yicha sport musobaqalarini o’tkazish dasturining ishlab chiqilishi, sport musobaqalari o’tkaziladigan sport ob’ektlari infratuzilmasining yaxshilanishi va zarur sport inventarlari bilan jihozlanishi, sport musobaqalarining yuqori darajada tashkil etilishi hamda g’olib va sovrindorlarning munosib rag’batlantirilishini ta’minlasin.

5. Belgilansinki:

a) **“**Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sport musobaqalarini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha ishlarni muvofiqlashtirish: mahalla bosqichida – Xalq ta’limi

vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Sportni rivojlantirish vazirligi; sektor bosqichida – sektor rahbarlari; tuman (shahar) bosqichida – tuman (shahar) hokimlari; viloyat bosqichida – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari; respublika (final) bosqichida – Sportni rivojlantirish vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, musobaqalarning har bir bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar ushbu kichik bandga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rag'batlantiriladi;

b) olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini **t**ashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish: tuman bosqichida – tuman (shahar) hokimlari, Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Sportni rivojlantirish vazirligining tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari; viloyat bosqichida – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Sportni rivojlantirish vazirligi hududiy bo'linmalarining rahbarlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari; respublika (final) bosqichida – Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, musobaqalarning har bir bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar ushbu kichik bandga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rag'batlantiriladi.

6. Quyidagilar **"**Besh tashabbus olimpiadasi" hamda olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin**:** "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun Sportni rivojlantirish vazirligiga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan 2022 yildan boshlab har yili 50 milliard so'm miqdordagi mablag'lar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari; jamg'armalar, sport federatsiya (assotsiatsiya)lari, klublari, xorijiy investorlar, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari; qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. Sportni rivojlantirish vazirligi (A.Ikramov): Moliya vazirligi (T.Ishmetov) bilan birgalikda uch oy muddatda hududlarda yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish maqsadida bolalar-o'smirlar sport maktablarining yo'riqchi-uslubchi shtat birliklari hisobiga bolalar-o'smirlar sport maktabi direktorining ommaviy sportni rivojlantirish va selektsiya bo'yicha o'rinbosari lavozimini joriy etsin;

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi (O.Kasimov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda sport turlari bo'yicha tuman (shahar)larning terma va sektor jamoalarini shakllantirsin va sport-ta'lim muassasalariga iqtidorli yoshlarni saralab olish bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

8. Shunday amaliyot joriy qilinsinki, unga muvofiq "Besh tashabbus olimpiadasi" hamda olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari davomida g'olib va sovrindorlarni (1-3 o'rin) tayyorlagan umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to'g'ridan-to'g'ri beriladi**:** tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – ikkinchi malaka toifasi**;** viloyat bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – birinchi malaka toifasi**;** respublika (final) bosqichida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – oliy malaka toifasi**.**

9. Sportni rivojlantirish vazirligi (A.Ikramov):

a) sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan birgalikda ikki oy muddatda: mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha har bir mas'ulning ish faoliyatini to'liq baholashga qaratilgan reyting tizimini joriy etsin**;** yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini ommalashtirish va ularning qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar tashkil etish tizimini yo'lga qo'ysin;

b) Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda 2022 yil yakuniga qadar 6 million nafar yoshlarning ommaviy sport tadbirlari bilan qamrab olinishini ta’minlasin.

10. Yoshlar ishlari agentligi: uch oy muddatda yoshlar orasida “Besh tashabbus olimpiadasi”, ommaviy sportni targ’ib qiluvchi materiallarni (buklet, banner va boshqalar) kreativ vositalardan foydalangan holda tayyorlasin va mahallalarga tarqatish choralarini ko’rsin**;** ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ular o’rtasida ommaviy sport musobaqalarini ommalashtirishga qaratilgan motivatsion roliklar tayyorlasin**;**

Sportni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ommaviy sport musobaqalarini namunali tashkil etgan yoshlar yetakchilari va boshqa mas’ul shaxslar uchun o’quv seminarlari tashkil etsin **va** maxsus sertifikat berish tizimini yo’lga qo’ysin;

mahallalarda musobaqalarni namunaviy tashkil etgan yoshlar yetakchilarini rag’batlantirish choralarini ko’rsin.

11. Xalq ta’limi vazirligi (B.Saidov): 2022/2023 o’quv yilidan boshlab umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarning qiziqishlari, talab va istaklaridan kelib chiqqan holda, jismoniy tarbiya fani o’qituvchilari hamda taniqli va faxriy sportchilar tomonidan kamida 1 ta sport turi bo’yicha to’garaklar faoliyatini tashkil etsin**;** to’garaklar faoliyatini keng yoritish va ularga o’quvchilarni qamrab olish maqsadida barcha umumiy o’rta ta’lim maktablarida to’garak jadvali bo’lishini ta’minlasin; har bir umumiy o’rta ta’lim maktabida futbol**,** basketbol**,** voleybol**,** gandbol **va** boshqa jamoaviy o’yin turlari **b**o’yicha jamoalar tuzsin hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o’rtasida musobaqalar o’tkazsin;

Sportni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bolalar-o’smirlar sport maktablarining yo’riqchi-uslubchilari tomonidan har chorakda bir marta umumiy o’rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o’qituvchilariga metodik yordam ko’rsatilishini tashkil etsin.

12. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi: 2022 yil 1 mayga qadar talabalar sportini yanada rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan sport

klublari o'rtasida musobaqalarni o'tkazsin; ikki oy muddatda oliy ta'lim muassasalarini sport turlariga ixtisoslashtirish ro'yxatini talabalarning xohish va istaklarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqsin; amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalq salomatligi milliy kengashiga axborot kiritib borsin.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili 1 fevralga qadar ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin: sport musobaqalarining respublika (final) bosqichlari bo'lib o'tadigan hududlar va u yerda joylashgan sport infratuzilmasi ob'ektlarini homiylik xayriyalari hamda byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etgan holda talab darajasida tayyorlash; ommaviy sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish uchun sport inshootlarini sport jihozlari bilan ta'minlash; ommaviy sport musobaqalarining mahalla bosqichidan viloyat bosqichiga qadar o'tkazilgan musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarni 1, 2 va 3-darajali diplom, medalь, kubok, esdalik sovg'alari bilan taqdirlash; hududlarda tashkil etiladigan boshqa sport musobaqalari tuman (shahar) va viloyat bosqichi g'oliblari uchun hokim sovrinini ta'sis etish; sport musobaqalari davomida har bir ishtirokchining qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini qaror toptirish, ularning buyuk ajdodlarimizning mardlik va jasurlik an'analarini munosib davom ettirishga qodir insonlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar dasturini amalga oshirish.

14. Sportni rivojlantirish vazirligi (A.Ikramov), O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A.Ko'chimov) hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.Xadjaev) ikki hafta muddatda mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan ishlarni ommalashtirishga qaratilgan maqolalar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi ommaviy sport musobaqalarini keng targ'ib qilish bo'yicha media-reja ishlab chiqsin va amalga oshirsin: ommaviy sport musobaqalarining o'tkazilishi to'g'risida maxsus roliklar tayyorlash va efirga joylashtirish; ommaviy sport musobaqalarini yanada ommalashtirish bo'yicha faxriy

ustozlar va nufuzli musobaqalar g’oliblari ishtirokida turkum ko’rsatuvlarni tashkil etish.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Zero, sport turli kasalliklar, yoshlar o‘rtasida zararli odatlar tarqalishining oldini olib, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda aholi, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg‘ona filiali, Belarus davlat jismoniy tarbiya universiteti bilan hamkorlikdagi qo‘shma jismoniy tarbiya, sport va turizm fakulteti, P.F.Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti bilan hamkorlikda qo‘shma jismoniy tarbiya, sport va salomatlik fakulteti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari, jahon va Osiyo chempionlari bo‘lgan 204 nafar sportchi tuman (shahar)larga biriktirildi, 92 nafari sport maktablarining rahbarlik lavozimiga tayinlandi, respublika tuman (shahar)lari 203 ta ustuvor, 206 ta istiqbolli va 199 ta rivojlanayotgan sport turlariga, 112 ta oliy ta’lim muassasalari 293 ta olimpiya, 17 ta milliy va 25 ta boshqa sport turlariga ixtisoslashtirildi.

Natijada sport bilan shug‘ullanadigan aholining ulushi 27,6 foizni tashkil etdi. Quvonarli tomoni shundaki, Tokio shahrida bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida 17 ta sport turida 71 nafar O‘zbekiston milliy terma jamoasi sportchilari ishtirok etib, ular tomonidan 3 ta oltin va 2 ta bronza medali qo‘lga kiritildi hamda ikkita sportchimiz Olimpiya rekordini o‘rnatdi. Jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi pog‘onaga olib chiqish maqsadida Taraqqiyot strategiyasi doirasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi ulushini xozirgi 27,6 foizdan 33 foizga yetkazish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish, oliy ma’lumotli trenerlar ulushini 85 foizga oshirish, qishki Olimpiya o‘yinlariga kamida 10 ta va 2030 yildagi Olimpiya o‘yinlariga kamida 20 ta litsenziyani qo‘lga kiritish nazarda tutilgan.

**Nazorat savollari:**

1. Taraqiyot strategiyasida aholisi o’rtasida jismoniy

tarbiya va sport sohasidagi isloxotlar haqida fikringiz

2. Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish borasida qanday ishlar olib borilmoqda
3. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish yo'lidagi harakatlar va yutuqlar**.**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o'zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullaev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma'naviyat, 2017.
6. Mustaqil o'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**10- Mavzu: 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari.**

**Reja.**

1. Ayol va uning jamiyat hayotidagi o’rni
2. Gender tenglikni ta’minlash siyosatini
3. Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari

**Tayanch tuhsunchalar:** jamiyat hayotidagi o’rni, Gender tenglik, ta’lim va kasbiy ko’nikmalar

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o’rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy printsiplari mavjud bo’lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo’yicha kamsitishga yo’l qo’yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o’ringa ega bo’lgan O’zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o’rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o’rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g’oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo’llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, o’zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta’minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug’lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo’’tabar onalarimizni e’zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro’yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo’lamiz.

Ta’kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O’zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo’ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo’lamiz. Sir emaski, yangi Uyg’onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma’naviyatning mustahkamligiga bog’liqdir. Mazkur o’tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta’limi va ilm-fan bilan shug’ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo’llab-quvvatlash va yanada rag’batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so’m ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko’nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo’lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat. Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to’laqonli ta’minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta’minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Bir so’z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e’tiborning ifodasi bo’lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo’lmagan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo’sh urayotgan shukronalik va yurtdan, Yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko’chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda. Ayollarga e’tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko’tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to’g’risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to’g’risida xabardorligini oshirish; huquqni qo’llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o’qitish kabi asosiy yo’nalishlardan iborat.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda. E’tirof etish kerak, so’nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko’tarildi. O’zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo’shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to’g’risida»gi Jeneva Konventsiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to’g’risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to’g’risida»gi Nьyu-York Konventsiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konventsiyasini to’ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo’yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Yurtimizda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida», «Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida», «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to’g’risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, qonun hujjatlarining majburiy gender-huquqiy ekspertizasi joriy qilindi. Ayollarni qo’llab-quvvatlash masalalarida davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligini qayd etib o’tish joiz. Birgina joriy yilning mart oyida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni

yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi farmonlari hamda «Oila va xotin-qizlar davlat qo’mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi ijobiy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega: birinchidan, oila va xotin-qizlar bilan professional tarzda ishlashga ixtisoslashtirilgan yangi davlat organi – Oila va xotin-qizlar davlat qo’mitasi tashkil etildi; ikkinchidan, xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari belgilab berildi; uchinchidan, xotin-qizlar bilan ishlashning yangi mexanizmi – mahallalarda xotin-qizlar bilan maqsadli va manzilli tartibda ishlash amaliyoti belgilab berildi; to’rtinchidan, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash hamda ularni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish maqsadida yangi huquqiy mexanizmlar – prokuratura organlarining ushbu sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorati joriy etildi; beshinchidan, xotin-qizlarga ta’lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug’ullanishlari uchun davlatning yangi kafolatlar va imtiyozlar paketi joriy etildi; oltinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ularning munosib turmush kechirishlariga ko’maklashishni nazarda tutuvchi amaldagi mexanizmlar takomillashtirildi; yettinchidan, xotin-qizlarning sog’lig’ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo’lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish onalikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi; sakkizinchidan, xotin-qizlar bilan muloqot qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda va muloqotning yangi, samarali platformalariga asos solindi.

«Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmon bilan 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo’yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ta’kidlash kerakki, 2030 yilgacha bo’lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-son qarori bilan tasdiqlangan «2030 yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish

sohasidagi milliy maqsad va vazifalar»ning 5-maqsadi – Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish – mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish doirasida xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ularga nisbatan zo’ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya hamda ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini, erta nikohlar va zo’rlab nikohlash holatlarini tugatish, xotin-qizlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash, reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umum qamrovli tibbiy-sanitariya yordami ko’rsatish uchun sog’liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta’minlash va shu kabi 9 ta vazifa belgilandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030 yilga qadar O’zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro’yobga chiqarishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 5 ta maqsadida xotin-qizlar masalasiga oid vazifalar belgilangan. «Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash» deb nomlangan 69-maqsadida, jumladan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo’ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ko’zda tutilgan. Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 221, 232, 253, 254, 307, 308, 338-vazifalari bevosita yuqorida qayd etilgan maqsadlarni ro’yobga chiqarishga qaratilgan. Ayollar borasida amalga oshirilgan sa’y-harakatlarning bugungi samarasi ushbu sohadagi institutsional asoslarini tubdan takomillash-tirish bilan uzviy bog’liq. Modomiki, mustaqillikning ilk davri – demokratik islohotlar

boshlanishida gender tenglik masalasi va ayollarning jamiyatdagi roli naqadar muhim ekanligi 1991 yildayoq alohida davlat tuzilmasi – Xotin-qizlar qo’mitasi shakllantirilishi bilan yana bir bor o’z tasdig’ini topgan.

So’nggi yillarda bu yo’nalishdagi institutsional asoslar tubdan takomillashtirilib, Oliy Majlis Senati huzurida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo’mitasi tashkil etildi. Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi joriy qilindi va 2022 yil 1 martdagi Prezident farmoni bilan Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi sifatida qayta tashkil etildi. Senat Raisi Tanzila Norboeva boshchiligida dastlab Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ish boshlagan bo’lsa, keyinchalik, ya’ni joriy yil 1 martdagi Prezident farmoni bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo’yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mana shu yilning mart oyida Oila va xotin-qizlar davlat qo’mitasi tashkil etildi. E’tiborli tomoni O’zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo’yicha komissiyasining maqomi va vakolatlari qonun darajasida belgilandi. Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida»gi Qonunning 12-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishish, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar ko’rish, jinsi bo’yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilganligi munosabati bilan hayotda og’ir vaziyatga tushib qolgan insonlar huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko’rsatish bo’yicha maxsus muassasalarni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo’yicha komissiya tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Komissiyaga gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko’rish va ularni bekor qilish yuzasidan Vazirlar

Mahkamasiga takliflar kiritish, davlatning rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik printsipini ta'minlashga ko'maklashish, davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish, teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vaziyat monitoringini va tahlilini o'tkazish, jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish holatlarining oldini olish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, bu sohada ta'limga oid, axborot-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish yuzasidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, ushbu yo'nalishdagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat olib borish, sohada ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish kabi qator vakolatlar berilgan. Bundan tashqari, jahon tajribasida birinchi marta har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ayollar masalalari bilan alohida, kompleks va manzilli ishlash maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimi joriy qilindi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda, ularga jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam berayotgan hududlardagi «Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi» ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan ayollar uchun chinakam ko'makchi bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotidagi muhim mezon Bugun yurtimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishlari qatorida alohida belgilanganligiga bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va sa'y-harakatlar samarasidan ham guvoh bo'lib turibmiz.

2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilayotgan yangiliklar fikrimizning to'liq tasdiqlaydi. Xususan, 6 ta asosiy yo'nalish va 112 ta banddan iborat bo'lgan chora-tadbirlar rejasida mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan, ilgari jahon mamlakatlari amaliyotida kuzatilmagan

Yangi O'zbekistonning o'ziga xos tajribasiga asos bo'ladigan quyidagi yangiliklar o'z aksini topdi: Birinchi yo'nalish – xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida: qonunchilikda «xotin-qizlarni ta'qib etish» tushunchasining huquqiy ta'rifini ishlab chiqish; o'quvchi-yoshlarga nisbatan jismoniy tazyiq o'tkazganlik, zo'ravonlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash; uzoq muddatga chet davlatlarga chiqib ketayotgan ota-onalar tomonidan farzandiga vasiy yoki homiy tayinlashning majburiy tartibini belgilash;

«Bolalarga aliment undirish va oilani ta'minlashning boshqa shakllarining xalqaro tartibi to'g'risida»gi Gaaga Konventsiyasiga qo'shilish xotin-qizlarning mehnat huquqlari ta'minlanganlik holatini o'rganish; xo'jalik hisobidagi korxona va tashkilotlarda rasmiy ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lash tizimini yaratish; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etiladigan xotin-qizlarning oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga ko'maklashish; «Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi, «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi va «Bola huquqlari to'g'risida»gi konventsiyalar asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari ijrosini o'rganish va boshqa masalalar belgilangan.

Ikkinchi yo'nalish – xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadida: 2022 yilda – 140 ming, 2023 yilda – 150 ming nafar xotin-qizni ishga joylashtirish choralarini ko'rish; 2022 yilda – 66 ming, 2023 yilda – 74 ming nafar xotin-qizni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali ularning bandligiga ko'maklashish; 2022 yilda 17 ming 62 nafar, 2023 yilda 19 ming 20 nafar xotin-qizga subsidiyalar ajratish; respublika va hududlarda «Yetakchi ayollar muloqoti» platformasini tashkil etish;

Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga nomzodlarni tavsiya etishda xotin-qizlarning sonini magistraturada o'qishga tavsiya etilgan nomzodlar umumiy sonining 30 foizigacha yetkazish; «Bir million dasturchi» loyihasida ishtirok etadigan xotin-qizlar sonini 30 foizga yetkazish kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan.

Uchinchi yo’nalish – ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash maqsadida: 14 ming nafar xotin-qizga turarjoy ijara to’lovi bo’yicha kompensatsiyalar to’lash, 12 ming nafar xotin-qizni ijtimoiy ijara shartlari asosida ijtimoiy uy-joylarga joylashtirish; uy-joyga muhtoj noturar joylarda yashaydigan «Ayollar daftari»ga kiritilgan 6 ming nafar xotin-qizga bir martalik moddiy yordam ko’rsatish; «Ayollar daftari»ga kiritilgan yolg’iz ehtiyojmand xotin-qizlarga kamida 100 ming nafar xotin-qizga bir martalik moddiy yordam ko’rsatish; 30 ming nafar xotin-qizga ularning ta’mirtalab uy-joylarini ta’mirlash uchun qurilish materiallari olib berish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish; 84 ming 333 nafar onaxonlarni bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rikdan o’tkazish; 12 ming 919 nafar onaxonlarning tashkilotlar va kasaba uyushmalari sanatoriylarida davolanishlarini tashkil etish; «Ayollar daftari» tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz 300 ming nafar xotin-qizning bandligini ta’minlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

To’rtinchi yo’nalish– oila institutini mustahkamlash maqsadida: har yili reja-jadval asosida mingta notinch va kam ta’minlangan oilalarni ichki turistik sayohatga imtiyozli yuborish; oilaviy ajralishlarning oldini olishda mediatorlik institutining rolini kuchaytirish; O’zbekistonning 2030 yilgacha mo’ljallangan demografik barqarorlik Kontseptsiyasini ishlab chiqish; «Demografiya» milliy portalini yaratish hamda mazkur sohada faoliyat yuritayotgan olimlarning yutuqlari va ishlanmalarini yoritib borish kabi dolzarb vazifalar nazarda tutildi.

Beshinchi yo’nalish – xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida: xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish; voyaga yetmagan qizlar bilan ishlashda «Oila – mahalla – ta’lim muassasasi» hamkorlik mexanizmi samaradorligini oshirish; profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish kabi xotin-qizlar bilan ishlash borasidagi amaldagi yangi bosqichga ko’tarilmoqda.

Oltinchi yo’nalishda esa Chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan yuqoridagi ustuvor vazifalarni samarali amalga oshirish, ularning izchilligini ta’minlash va bu borada kuchli monitoring yuritishning tashkiliy mexanizmlari belgilandi. Mazkur

holat xotin-qizlarning chinakam baxtli hayot kechirishlari, saodatli ayol sifatida oila va jamiyatda mustahkam o’rin egallashlari uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Joriy yil 4 mart kuni Prezidentimiz ishtirokidagi xotin-qizlar masalalariga bag’ishlangan videoselektorda qizlar ta’limi uchun bir qancha imtiyozlar haqida so’z yuritilib, yangi o’quv yilidan boshlab magistraturada o’qiyotgan qizlarning kontrakt puli to’liq byudjetdan qoplab berilishi (23 ming nafar qizga 200 milliard so’m), har yili 50 nafar qizni nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafarini magistraturaga yuborish, har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo’qotgan 150 nafar qizning (jami 2,1 ming nafar) ta’lim kontrakt pulini mahalliy byudjetdan to’lab berish, yosh farzandi bor talaba qizlarga masofaviy o’qishga sharoit yaratish, doktorantura yo’nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratish, har yili xotin-qizlar talaba bo’lishi uchun kvotaning kamida 50 foizi aniq fanlar, texnika va huquqshunoslik yo’nalishlari uchun maqsadli ajratilishi, yangi o’quv yilidan boshlab oliygoh, texnikum va kollejlarda o’qiyotgan qizlarga ta’lim kontraktlarini to’lash uchun ilk marta 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinishi belgilab berilgani bu boradagi islohotlar jarayonini yanada yuqori bosqichga olib chiqdi.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning natijasi o’laroq, milliy parlamentimizda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 35 foiz va oliy ta’limda 46 foizdan yuqori. Davlat boshqaruvida 1,5 mingga yaqin mutaxassis xotin-qiz turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, tizimda ayollarning ulushi 33 foizni tashkil etmoqda va bu ko’rsatkich jadal sur’atda oshib bormoqda.

Ijtimoiy himoya tizimida mutlaqo yangi yo’nalish – xotin-qizlar muammolarini o’rganib, hal etish uchun «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Temir daftar» joriy etildi. «Ayollar daftari» asosida so’nggi3 yil davomida 400 ming nafarga yaqin xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ehtiyojmandlarining uy-joy ta’minoti, yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini oshirish

bo’yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayollar salomatligiga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. CHunki jamiyatning sog’lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog’lom ekani bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “…ona va bola sog’lig’iga e’tibor – jamiyatga, kelajakka e’tibordir». Shu maqsadda 2021 yildan boshlab homilador ayollarga va 15 yoshgacha bolalarga 7 turdagi vitamin, bolalar uchun parazitar kasalliklarga qarshi dori vositalarini bepul tarqatish tizimi yo’lga qo’yildi. Ushbu tadbirlarda 2021 yilda 11 million ayol qamrab olingani tahsinga sazovor. Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo’lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o’rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O’zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi

Inson huquqlarining poymol etilishiga qarshi yana bir muhim qadam sifatida Davlat rahbarining 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan jamiyatda ayollarni xo’rlash va qadrsizlanishlariga qarshi murosasizlik muhitini yaratish vazifasi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Aslida gender tenglik, ya’ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. So’nggi tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, bu omil eng yuqori darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham negizidir. CHunki mutaxassislarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa agar ular aqliy mehnat bilan band bo’lsa, bir necha barobar yuqoriroq natija ko’rsatar ekan. Qolaversa gender tenglik – bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko’rsatuvchi indikator. Demak, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo’shilish, yurtimizga tobora ko’proq investitsiyalar jalb qilish

uchun ham shu indikatorga yetarlicha ahamiyat berishimiz kerak. Bu borada doimiy, ko'lamdor va salmoqli natijalarga erishish uchun esa umumiy reja ko'rinishidagi hujjat, oddiy til bilan aytganda, dasturul amal kerak. SHu nuqtai nazardan, mamlakatimizda aynan shu hujjat – 2020–2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu tarixiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari, hamda 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari qatorida qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik printsiplari belgilangan. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashga qaratilgan mazkur hujjat tez orada jamoatchilik e'tiboriga havola qilinib, u bo'yicha keng muhokamalar o'tkazilishi rejalashtirilmoqda Ta'kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha tizimli o'quvlar tashkil etilmoqda Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo'lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol "Mo''tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy

parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Mamlakatimizda tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi.

Katta kompaniyalar va nodavlat tashkilotlar xodimlarining umumiy sonidagi xotin-qizlar ulushida deyarli to'liq gender tenglik ta'minlangan bo'lib, 2019 yilda ko'rsatkichlar 49,5 foizga yetdi. Shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining 20 foizdan ortig'iga xotin-qizlar rahbarlik qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, Strategiyada ta'kidlab o'tilganidek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda "O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari" qabul qilingan. O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"dir. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas'ul. Shu bilan birga, xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda e'tiborni kuchaytirish talab etiladigan masalalar mavjud. Jumladan, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng darajada davlat va jamiyat boshqaruviga oid dolzarb masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda ishtirokini kengaytirishni ta'minlash lozim. Shu nuqtai nazardan, Gender tenglika erishish Strategiyasiga asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, gender tenglikka erishish bir qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash shular jumlasidan. SHuningdek, strategiyada gender tenglikni ta'minlash tadbirlarini hisobga olgan holda davlat dasturlarini byudjetlashtirish va moliyalashtirish har ko'zda tutilgan.

Gender strategiyasini amalga oshirishdan salmoqli natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi. Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalardagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, shuningdek o'zini o'zi band qilishga erishiladi. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi. Bu – kutilayotgan natijalarning bir qismi, xolos. Mazkur Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi barcha hamkorlar va turli darajadagi mas'ullarning faolligini talab qiladi. Belgilangan davrda Strategiya maqsadlariga erishish avvalo mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini jadallashtirish, demakki xalq farovonligini yuksaltirishga, jamiyatdagi ko'plab muammolarni hal qilishga, kundalik hayotimizning yanada yaxshi tomonga o'zgarishiga xizmat qiladi. davlatimiz rahbarining 2022 yil 7 martdagi tegishli farmoniga muvofiq, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat byudjetidan mablag' ajratishning yangi tizimi joriy etilmoqda.

Ayniqsa, tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan depozit mablag'lari hisobidan ta'lim kreditlarini 14 foiz stavkada ajratishi, ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarilishi ming-minglab qizlarning ayni dilidagi gap bo'ldi. Bu ko'p yillar davomida ta'lim olish istagida yurgan xotin-qizlarning orzularini ro'yobga chiqarish uchun muhim qaror bo'ldi. E'tiborli tomoni, ta'lim krediti bo'yicha foiz stavkalarini so'ndirish Moliya vazirligi

huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, ularni tijorat banklariga to'lash orqali amalga oshiriladi. SHuningdek, ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari va boshqa uchinchi shaxs birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarori bilan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kirgan oilalarning xotin-qizlariga ajratiladigan ta'lim kreditlari uchun garov va kafilliklar talab etilmaydi. Jamg'arma mablag'lari hisobidan tijorat banklarining so'rovlariga asosan kelgusida 14 foiz stavkada ta'lim krediti ajratish uchun ularga 10 foiz stavkada depozit mablag'lari joylashtiriladi. Jamg'arma tomonidan ta'lim kreditlari uchun tijorat banklariga zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlash va nazorat qilish maqsadida Jamg'armaga 1 ta Maktabgacha ta'lim vazirligi shtat birliklarini maqbullashtirish hisobidan va 1 ta Moliya vazirligining umumiy shtat birliklari doirasida jami 2 ta shtat birligi ajratiladi. O'zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosatining hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotgani quvonarli. Mana shu ko'rsatilayotgan e'tibor tufayli bugungi kunda ayollarning barcha soha va tarmoqlardagi o'rni va ta'siri yanada ortib boryapti. Umuman olganda, bugungi kunda xotin-qizlarimiz siyosiy jarayonlarda nafaqat faol ishtirokchi, balki jamiyatimizning katta kuchiga aylanib bormoqda. Mazkur qaror va unda belgilangan vazifalarning so'zsiz ijrosi shubhasiz, nozik xilqat vakillarining jamiyatdagi rolini yanada oshirish, ularni har bir sohada erkaklar bilan birga samarali faoliyat yuritishlariga xizmat qiladi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 5 martdagi* "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi *Qarori xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mazkur Qaror* "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" **D**avlat dasturining 9-bandi ijrosini ta'minlashga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Unda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan

yaxlit tizimni yaratish bilan bog’liq chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Mazkur qarorga muvofiq, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etilishi belgilangandi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo’llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o’rtasida keng targ’ib qilish, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko’maklashish, tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to’g’ri yo’naltirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko’rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o’rtasida sog’lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko’paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash uning asosiy vazifalari etib belgilandi. Shu bilan birga, Jamoatchilik kengashi zimmasiga xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg’or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo’yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish choralarini ko’rish, hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, mahallalardagi “Ayollar maslahat kengashlari” faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash, ularga uslubiy-amaliy ko’maklashish, “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar, sektorlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o’z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vazifalari ham yuklandi. Qarorda Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha respublika komissiyasi joylarga chiqqan holda bir qator yo’nalishlarda ishlarni har bir xonadon va mahalla kesimida tashkil etishi ko’zda tutilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni va oilani qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi sifatida qayta tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari Qarorda o’z aksini topdi.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang'ich badalini to'lab berish, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish, xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish ushbu jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilandi. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur Qaror bilan jamg'arma har yili AT "Xalq banki"ga 100 milliard so'm miqdoridagi mablag'larni 2021 yilda Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz past stavkada, 2022 yildan boshlab esa Markaziy bankning asosiy stavkasida yo'naltiradi. Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan ma'qullangan dasturlar asosida tashkil etilgan o'quv kurslarini, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o'qitish maskanlari hamda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta'lim muassasalarining kasbga o'rgatish o'quv kurslarining maxsus o'qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan xotin-qizlarga mazkur mablag'lar hisobidan tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari tavsiyasiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3 yilgacha muddat va **6 oy**gacha imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasida bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha bo'lgan miqdorda kreditlar ajratilishi Qarorda o'z aksini topgan.

**Nazorat savollari:**

1. Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni ta'minlash masalasi
2. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini olib borilishi

**3.** Gender tenglik tushunchasi

**4.** Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari borasidagi islohotlar

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

**11- Mavzu: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish**

**Reja.**

**1.** Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash

2. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish.

**3.** Yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish

**Tayanch tuhsunchalar:** huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi, sog'lom turmush tarzi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning huquqlari himoyasini ta'minlash, ular o'rtasida nazoratsizlik, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda profilaktika qilish borasidagi nazoratini takomillashtirish va samaradorligini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, o'tgan yillar davomida yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yoshlarda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish borasidagi ishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 5 iyuldagi *«Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi* farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy printsiplari Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: ochiqlik va shaffoflik; yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish; yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish; yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish.

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish. Yoshlarni ishga

joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg’usi, bag’rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash. Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo’ravonlik va shafqatsizlik g’oyalaridan himoya qilish. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish. Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash hamda rag’batlantirish. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish. Yoshlarda sog’lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish. Yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish. Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro’yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

**Nazorat savollari:**

**1.** Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidasi islohotlarni gapiring

2. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish ushun olib borilayoigan ishlar

**3.** Yoshlarda sog’lom turmush tarziga intilishni shakllantirish uchun qanday yo’llarni amalga oshirish maqsadga muvoviq

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga

oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
**6.** Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

## 12- Mavzu: Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

**Reja.**

1. «Yangi O’zbekiston — ma’rifatli jamiyat» kontseptsiyasini amalga oshirish.
2. Oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.
3. «Yoshlar — Yangi O’zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida «Yangi O’zbekiston — Uchinchi Renessans» g’oyasining ro’yobga chiqarilishini ta’minlash.

**Tayanch tuhsunchalar:** «Yangi O’zbekiston — ma’rifatli jamiyat» kontseptsiyasi, ma’naviy tarbiyaning uzviyligi, «Yangi O’zbekiston — Uchinchi Renessans» g’oyasi

Aholi ruhiyatidagi bunday ijobiy o’zgarishlarni yanada rivojlantirish orqali uchinchi Renessansga muhim asos bo’ladigan «Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat» kontseptsiyasini ishlab chiqishga kirishilgani diqqatga sazovor. Bu, avvalo, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma’rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a’zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Tarbiyada uzilishga yo’l qo’yib bo’lmasligi, odamlarning yoshi, kasbi, bilimi darajasi va ma’naviy qiyofasiga qarab ma’rifiy ishlarning samarali uslublarini joriy qilish lozimligini hayotning o’zi ko’rsatmoqda. Shu sababli targ’ibot-tashviqot ishlarini ham ommaviy, ham muayyan ijtimoiy guruhlar, ham individual tarzda olib borish zarurati yuzaga kelmoqda. Qishloq xo’jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan

xodimlar tarkibi tahlillaridan kelib chiqib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish borasida aniq maqsadli chora-tadbirlar ko’rilmoqda. Birinchi navbatda, vazirlikning barcha bo’g’inlardagi boshqaruv organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishni ta’minlash maqsadida yaxlit tizim yaratildi. Sohada vazir raisligida Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tuzilib, tizimdagi tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlari zimmasiga o’z mehnat jamoalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish uchun shaxsan javobgarlik mas’uliyati yuklatildi. Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashi a’zolari – tizimdagi 5 ta oliy ta’lim muassasasi, shuningdek, hududlardagi tashkilot, korxona va muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishga mas’ul etib belgilandi. Ular rahbarligidagi professor-o’qituvchilardan iborat Ishchi guruhlar tomonidan so’nggi ikki yil davomida vazirlikning quyi organlari faoliyati 3 marta o’rganildi, bu borada ishni tizimli yo’lga qo’yish bo’yicha zaruriy choralar ko’rildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 231 ta tashkilotning 34 tasida Ma’naviyat va ma’rifat xonalari, 42 ta muassasada 1,5 million nusxa kitob fondiga ega kutubxonalar faoliyat yuritmoqda. 171 ta tashkilotda Ma’naviyat burchaklari hamda 158 tasida esa siyosiy, huquqiy, badiiy va kasbiy adabiyotlarga ega kitob javonlari tashkil etildi. Sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar asosan qishloq xo’jaligining turli tarmoqlari mutaxassislari bo’lib, ularning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy va kasbiy bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish bugungi kun talabidir. Joylarda o’tkazilgan o’rganishlar va tahlillar shuni ko’rsatdiki, ushbu yo’nalishlar bo’yicha «Ma’naviyat va ma’rifat soatlari»ni yuqori saviyada o’tkazish uchun hamma vaqt ham yuqori malakali ma’ruzachi – mutaxassisni jalb qilish imkoni mavjud emas. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining hududiy bo’linmalarida bir vaqtning o’zida joylardagi barcha tashkilotlarda o’tkaziladigan tadbirlarda xodimlarining ishtirokini ta’minlash imkoniyatlari chegaralangan. SHuni e’tiborga olib, Toshkent davlat agrar universitetining professor-o’qituvchilari, tizimdagi ilmiy xodimlar, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo’linmalari rahbarlarini jalb qilgan holda, 20 ta mavzu bo’yicha videodarslar markazlashgan holda tayyorlandi, vazirlikning masofaviy o’qitish tizimiga joylashtirildi. Quyi organlarda o’tkazilayotgan «Ma’naviyat va

ma’rifat soatlari»da ulardan muhim amaliy va uslubiy qo’llanma sifatida foydalanilmoqda. Har bir inson muayyan mahalla hududida istiqomat qiladi. Demak, har bir xodimning turmushi, mahalladagi o’rnini o’rganmasdan turib, uning ma’naviy siyratini birgina mehnat faoliyatidagi sifat va miqdor ko’rsatkichlari bilan shakllantirib bo’lmaydi. Shu sababli tashkilotlar ma’muriyati, mehnat jamoasi va ularning jamoat tashkilotlari, mahallalarning ma’naviy-ma’rifiy ishlardagi o’zaro hamkorligini tashkil etish borasida ilk qadamlar qo’yilmoqda. Yosh kadrlar bilan «Ustoz-shogird» an’analari asosida ishlash orqali ularning amaliy tajribasini shakllantirish, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Shuningdek, targ’ibot-tashviqot ishlarini davomiy ravishda olib borishda keyingi yillarda Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat boshqaruvi organlari xodimlari uchun har haftaning juma kunlari video-konferentsiya shaklida o’tkazilayotgan «Siyosiy-ma’rifat soati» muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Ma’naviy tarbiyani to’g’ri yo’lga qo’yishda ommaviy axborot vositalari katta ta’sir kuchiga ega. Ochig’i, ularning bu imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalana olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda so’nggi paytlarda kuzatilayotgan turli g’oyaviy va mafkuraviy xurujlarga aks ta’sir ko’rsatishning aniq tizimi shu paytgacha izchil yo’lga qo’yilmaganligi nihoyatda tashvishli hol. Ayniqsa, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy o’zligimiz va qadriyatlarimizga mutlaqo yot urf-odatlar singdirilayotgani hech bir qolipga sig’maydi. Ularning ko’pchilik shakllari nikoh to’ylarida joriy qilina boshlaganiga guvoh bo’lib turibmiz. Televidenie va radio kanallardagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy o’rganish va tahlil qilish lozimga o’xshaydi. Telekanallar soni oshishi bilan birga ulardagi ko’rsatuvlarning ma’naviy-ma’rifiy darajasini yuksaltirish muammoligicha qolmoqda. Xorijiy televidenielardan andoza olgan holda turli xil shoular, tanlovlar, chet el teleseriallari va ularning syujetlari asosidagi milliy seriallar, kliplar namoyish etilishi, ko’p hollarda oilaviy mojarolar, xudbinlik mavzulari atrofida o’ralashib qolinayotgani endi ulg’ayib kelayotgan yoshlarimizga o’z ta’sirini ko’rsatmasdan qolmayotgani shubhasiz. Ulardagi qaynona-kelin munosabatlarining «bo’rttirib» namoyish qilinishi mahalliy va xorijiy

tomoshabinlarning o’zbek ayoli haqidagi tasavvurining salbiy tarzda shakllanishiga sabab bo’lmasmikan, deb xavotirlanasan kishi. Televideniedan, davriy nashrlardan o’z ma’naviy ehtiyojlarini qondira olmayotgan ayrim odamlar ijtimoiy tarmoqlarga murojaat etmoqda. Ularning muxlislari ko’lami kengaymoqda. Albatta, bu o’rinda davr va zamon, inson va uning dunyoqarashidagi sifat o’zgarishlarini hisobga olgan holda o’z faoliyatini isloh qilib, yangicha sharoitda ham salmoqli miqdordagi mushtariylarga ega davriy matbuot nashrlari borligini e’tirof etish joiz. Lekin ular ham sanoqli. Odamlarning matbuot nashrlariga qiziqishini qayta tiklash muhim - muammolardan biriga aylandi. Menimcha, ushbu masala yechimi uchun jiddiy ijtimoiy tadqiqotlar o’tkazilishi, ular yakunlari tahlil va xulosalar asosida tahririyatlar faoliyati isloh qilinishi, matbuot nashrlarining ijtimoiy tarmoqlardagi ommabopligini oshirish bo’yicha tizimli choralar belgilanishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Xulosa qilib aytganda, yangi O’zbekistonni va unda ma’rifatli jamiyatni yaratish hammamizga va har birimizga ko’p jihatdan bog’liq. Avvalo, barchamiz bunyod etilayotgan yangi jamiyatimizga munosib bo’lish uchun boy tarixiy madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda zamonaviy bilim va ko’nikmalar bilan mustahkamlangan salohiyatga ega bo’lishimiz lozim. SHu sababli ham keng miqyosdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda huquqiy-tashkiliy shaklidan qat’i nazar, jamiyatimizning ushbu sohaga mutasaddi - sub’ektlarini o’zaro uzviy va muvofiqlashgan faoliyati tizimli yo’lga qo’yilishini davrning o’zi talab qilmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o’zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o’zaro aloqa shakllariga ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma’naviy yo’nalishidagi o’zgarishlari oila faoliyatining o’zgarishiga sabab bo’lmoqda. Bunday o’zgarishlar oila qurish, mehrmuhabbat, o’zaro do’stlik va farzand ko’rishni rejalashtirishda o’z ifodasini topmoqda. O’zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Oila biz uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qaerda ishlashidan qat’iy nazar, kim bo’lishidan qat’iy nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo’lmaydi. Shuning uchun men

farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o’zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”1 – deb fikrini bildirdi. Davlatimiz oilalarni o’zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma’naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg’unligini ta’minlashdan manfaatdordir. Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta’minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa bu, o’z navbatida, bolalar tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo’llaridan biridir. SHuning uchun ham otaonalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va o’qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas’uliyati nihoyatda muhimdir. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo’lib qolmasdan, balki barchaning ishi, keng ma’noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Respublikamiz qarorlarida ta’kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy sog’lom, ma’naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to’g’risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo’lgan yoshlar haqidagi g’amxo’rliklarini kuchaytirmoqda. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to’g’risidagi mas’uliyati oshirilmoqda. Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko’paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma’lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyat yuritmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan, ikki yo’nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an’anaviy qismi sifatida o’rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo’nalishida ham tadqiq etilmoqda. Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to’laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni

kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta’minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to’laqonli hissiy-emotsional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta’minlash ehtiyojlarini qondiradi. Mahalla yirik jamoadir. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugunda mahalla hayoti bilan bog’liq ko’plab qadriyat va an’analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o’rni va ahamiyati ortayotganida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda globallashuv jarayonlari kechayotgan bugungi davrda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish davr talabiga aylandi. Mamlakatimizda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga, asosan, ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo’nalishdan iborat 2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi asosida 2022 yil O’zbekistonda “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”, deb e’lon qilindi. Inson manfaatlari va uning qadri ustuvorligiga asoslangan xalqchil siyosat mamlakatimizda xalqimizning noyob an’ana va qadriyatlari, shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlari bajarilishini kafolatlaydigan, o’zini o’zi boshqarish institutining o’ziga xos ko’rinishi bo’lgan mahalla institutining rivojlantirilishi asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 9 349 ta fuqarolar yig’ini mavjud bo’lib, ularning 41 tasi shaharcha fuqarolar yig’ini; 73 tasi qishloq fuqarolar yig’ini; 165 tasi ovul fuqarolar yig’ini; 9 070 tasi mahalla fuqarolar yig’inidir. Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining oshishida, odamlar ongu tafakkurida demokratik qadriyatlarni mustahkam qaror toptirishda, aholini aniq va manzilli ijtimoiy himoya qilishda ushbu tuzilmalarning o’rni va ahamiyati g’oyat katta. Ayni paytda mahallalarning yosh avlodni ona

Vatanga muhabbat, istiqlol g’oyalariga sadoqat, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, sog’lom turmush tarzini targ’ib etish, yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g’oyalari singdirib boriladi. Mahalla demokratiyaning haqiqiy darsxonasiga aylanishi lozim. Mahalla tarbiya o’chog’idir. Farzand oilada dunyoga kelib birinchi bor otaonasini tanisa, ulg’aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurishturish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarni, avvalo, mahalladan, aniqrog’i, ota-onalari, qo’ni-qo’shnilari, tabarruk otaxonlari, duogo’y onaxonlaridan o’rganadi. SHu nuqtai nazardan tahlil etilganda, “Oila – mahalla” tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo’li bilan oilaning mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligiga erishish yaxlit jamiyat barqarorligi va tinchligining muhim omillaridandir. Ijtimoiy boshqarishning o’ziga xos shakli bo’lgan mahalla bir qancha madaniy-ma’naviy tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, oilaviy urf-odatlar, an’analar, oila turmushidagi quvonchli lahzalar hamda oilaviy hayot bilan bog’liq bo’lgan ahamiyatli voqealarni targ’ib qilishning ishonchli markazi sifatida ham namoyon bo’lmoqda. Mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajada ish olib borish uchun ma’naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo’lgan maskan hisoblanadi. Mahallada kishilarni odob-axloqqa o’rgatish, ularga urf-odatlar, turli qadriyatlarni singdirish, ilg’or udumlarni keng yoyish borasida ajoyib an’analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo’lsa, mahalla uning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo’lsa, mahalla ko’rkiga ko’rk qo’shadi. Mahallalar obod bo’lsa, yurtimiz ham shunchalik obod bo’ladi. Ya’ni bugungi kunning mahallasi, eng avvalo, sog’lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo’lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o’zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma’noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb atash ham mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o’rtasida mafkuraviy ishlarni

samarali yo’lga qo’yish uchun katta imkoniyatlar mavjud, ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o’rni beqiyos. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich turi hisoblanadi hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi. Insonning shaxsi va g’oyaviy dunyosi yoshlik yillarida shakllanadi. SHu sababli milliy mafkura asoslarini ularning ongiga singdirishda bu imkoniyatdan to’g’ri foydalanish lozim. Maktabgacha ta’lim sog’lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shartsharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya va sog’lomlashtirish muassasasi hisoblanadi va quyidagilar uning vazifalariga kiradi: – oila bilan ta’lim-tarbiyaviy hamkorligini kuchaytirish; – bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish; – bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash; – bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish; – bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash; – bolalarda milliy g’urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish; – bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o’zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish; – bolalarni bilim olish ehtiyojini, o’qishga intilish manbalarini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta’lim jarayoniga tayyorlash. Umumiy o’rta ta’lim muassasalari. Respublikamizda oilaviy tarbiya samaradorligini hamda aholining umumiy madaniy saviyasini oshirish ma’lum darajada ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning savodxonligiga ham bog’liq. So’zsiz bu masalani ijobiy hal etishda ta’lim-tarbiya yuzasidan targ’ibot ishlarini olib boruvchi va bu

borada tarbiyaviy markaz rolini o'ynovchi o'rta umumiy ta'lim maktablarining roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021–2022 o'quv yilidagi statistik ma'lumotlariga asosan2 10130 ta (shaharda – 2227 ta, qishloqda – 7408 ta) maktablardagi 6246491 nafar (o'g'il bolalar – 3169780 nafar, qiz bolalar – 3076711 nafar) o'quvchilarga 282577 nafar mutaxassis, 118478 nafar II toifa, 74703 nafar I toifa, 26929 nafar oliy toifaga ega bo'lgan jami 502687 nafar (erkaklar – 158762 (32%), ayollar – 343961 (68%)) o'qituvchilar ta'lim va tarbiya bermoqdalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbek tilida – maktablar 8 227 ta, o'quvchilar 5346791 nafar. Rus tilida – maktablar 88 ta, o'quvchilar 636463 nafar. Qoraqalpoq tilida – maktablar 245 ta, o'quvchilar 124231 nafar. Tojik tilida – maktablar 92 ta, o'quvchilar 66959 nafar. Qozoq tilida – maktablar 143 ta, o'quvchilar 53407 nafar. Qirg'iz tilida – maktablar 21 ta, o'quvchilar 7795 nafar. Turkman tilida – maktablar 23 ta, o'quvchilar 10845 nafar. Ushbu davrda 300 dan ortiq yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. 11 yillik o'quv tizimiga o'tildi. U tizim tarkiban 3 qismga bo'linadi: boshlang'ich ta'lim – 4 yillik, tayanch o'rta ta'lim – 9 yil va, nihoyat 2 yillik o'rta ta'lim. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan) Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni qabul qilindi. Maktabning tom ma'noda tarbiya markaz rolini o'ynashi uchun o'qituvchi va otaonalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota- onalarga tarbiya ishida va bolalarning mehnati va dam olishini ko'ngildagidek uyushtirishda amaliy yordam berishdir. Aholi va ota-onalar o'rtasida ijtimoiy tarbiyaviy muhitni sog'lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlantirish, takomillashtirish oila va maktab aloqasini mustahkamlovchi omildir. Maktabning ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishida o'qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo'g'in maktab otaonalar

qo'mitasidir. Mazkur qo'mita qabul qilingan umumiy qoidalar asosida otaonalar jamoatchiligini maktab hayotiga, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilishi lozim. Bolalarni tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchidir. Axloqan pok, ma'naviy dunyosi boy oila deganda, biz katta va kichiklarning o'zaro hurmati, birbirlariga yordami, bir-birlariga izzat va hurmati tushuniladi. Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirita oladi. Bunday maktablar esa o'z atrofidagi zavod, fabrika, jamoa va davlat xo'jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o'quvchilarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi og'ir bolalarni o'z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko'plab ota-onalar maktab bilan yaqindan aloqada bo'lib o'quvchilar tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda. XXI asrda 2700 yoshdan oshgan muhtasham yozma yodgorligimiz "Avesto"da yomon o'qituvchi haqida mana bunday deyilgan: "Rostini aytsam, yomon ustod hayotni g'amgin qiladi, johillarni ulug' sanab, buyuk ayol-u erkaklarni Yazdon ne'matlariga yetishishidan mahrum etadi. Bunday ustodlar o'z nodurust ta'limi bilan xalqnieng yaxshi yumushlardan bezdiradilar, noto'g'ri pandlari bilan xalqni tirikchilik yo'lidagn urib, yomon yo'lga boshlaydilar... Hayot chirog'ini so'ndiradilar. Johillarni buyuk bilib, eng mo''tabar ayol-u erkaklarni Tangri yo'lidan qaytaradilar. O'z nodonliklari bilan parishon qiladilar"3 . O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi. Pedagog-olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi: 1. Maktab o'zining barcha ta'sirlari

majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo’naltira olsa. 2. O’qituvchilar jamoasi oila bilan o’zaro hamkorligi davrida o’zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to’g’ri tashkil eta olsalar. 3. Xalq ta’limi bo’limi va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga torta olsalar. 4. O’qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o’quv yillarida davom ettirilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi. Bayon etilgan fikr va mulohazalar ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berishda maktab asosiy rolь vazifasini o’tashini eslatib o’tamiz. Buning uchun quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin: –mamlakatimizda oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, aholining umumiy madaniy saviyasini oshirish ma’lum darajada ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning savodxonligiga bog’liq. So’zsiz, bu masalani ijobiy hal etishda ta’lim-tarbiya yuzasidan targ’ibot ishlarini olib boruvchi va bu borada tarbiyaviy markaz rolini o’ynovchi o’rta umumiy ta’lim maktablarining rolini oshirish; –maktabning tom ma’noda tarbiya markaz rolini o’ynashi uchun o’qituvchi va otaonalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog’langan bo’lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota- 2020–2021-o’quv yilida Respublikada jami oliy ta’lim muassasalari tasarrufida 69 ta akademik litseylar o’z faoliyatini olib borib, shundan Toshkent shahrida – 24 ta va boshqa viloyatlarda – 45 tani tashkil etadi. Ularda o’quvchilarga aniq fanlar, tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar ta’lim yo’nalishlarida chuqurlashtirilgan holda ta’lim beriladi. Kasb-hunar maktabi 339 ta, kollejlar 163 ta, texnikumlar 214 tani tashkil etadi. Qayd etilishicha, bugungi kunda O’zbekistonda 159 ta, shu jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud. Shundan: universitet 28 ta, institut 47 ta, akademiya 3 ta, konservatoriya 1 ta, filiallar 26 ta, xorijiy OTM va uning filiallari 30 ta, nodavlat OTM 24 tani tashkil etadi. O’zbekistondagi barcha oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar jami 571,5 ming nafarni tashkil etgan. SHundan, OTMlarda ta’lim olayotgan talabalarning 311,5 ming nafarini o’g’il bolalar, 260 ming nafarini qiz bolalar tashkil etmoqda4 . Yuqoridagi dalillarning keltirilishidan maqsad mamlakatimizda

sog'lom va barkamol avlod tarbiyalanayotganligi, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyati ro'yobga chiqayotganligi hamda jamiyatimizning doimiy va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ustuvor dasturi o'z vazifasini o'tayotganligidan dalolat beradi.

**Nazorat savollari:**

1. «Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat» kontseptsiyasini amalga oshirishdagi islohotlar
2. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlashdagi islohotlar.
3. «Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida «Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans» g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida qanday ishlar olib borilmoqda

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o'zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullaev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma'naviyat, 2017.
6. Mustaqil o'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya

## 13- Mavzu: Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

**Reja.**

1. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o’rganish
2. Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi
3. Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi

**Tayanch tuhsunchalar:** *ilmiy merosi*, milliy madaniy markazlari, rivojlantirish kontseptsiyasi

Taraqqiyot strategiyasining 71-maqsadi: “Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g’oyasini keng targ’ib etish orqali jamiyatda sog’lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish” deb nomlangan. Bu maqsad ijrosi doirasida joriy yilgi Davlat dasturida yetti banddan iborat vazifalar ko’zda tutilmoqda.

Dastlabki vazifa “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” kontseptsiyasini amalga oshirishdir. Buning uchun ayni paytda mazkur kontseptsiya va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqishga kirishildi.

Binobarin, biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo’shgan, adolatni qadrlaydigan xalq farzandlarimiz. Moziy shohidki, IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan va Musulmon Renessansi deb nomlangan Birinchi SHarq Uyg’onish davrida ham, butun dunyoda Temuriylar davri Renessansi deya e’tirof etilgan XIV-XVI asrlardagi Ikkinchi SHarq Uyg’onish davrida ham jamiyatda e’tiqod mustahkam, ma’naviyat kuchli, insonlar dunyoqarashida ma’naviyat ustuvor, davlatchilik tuzumida ma’naviyat va ma’rifat yetakchi bo’lgan.

Sharqning butun insoniyat tarixidagi nodir ijtimoiy hodisa bo’lgan har ikki Renessansi buyuk ajdodlarimizning ilm-ma’rifat va kuchli e’tiqod, diniy bag’rikenglik va insonparvarlik borasidagi ezgu g’oyalari bilan yo’g’rilgan edi. Bu g’oyalar bizning davrimizda, O’zbekiston mustaqilligi yillarida alohida, yanada teran ma’no-mazmun kasb etib bormoqda.

Har ikki Renessans davrida ilmu ijod bilan mashg’ul bo’lgan buyuk ajdodlarimiz va ulug’ allomalarimiz o’zlarining yuksak ma’naviyati, sobit e’tiqodi, havas qilsa arzigulik milliy g’urur va faxr-iftixor tuyg’ulari, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo’g’rilgan go’zal va noyob fazilatlari bilan alohida ajralib turgan.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur “O’zbekiston” qasidasida e’tirof etilganidek: “Temur tig’i yetmagan joyni Qalam bilan oldi Alisher”. Temuriylar davri Renessansining yorqin namoyandasi bo’lmish davlat arbobi, buyuk alloma, ulug’ shoir va mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiyning oliymaqom ma’naviyati yurtimiz asrlar osha taraqqiy topishi hamda millatimiz qadr-qimmati olam aro yuksalishi borasida buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning mohirona davlatchilik faoliyati va harbiy jasoratidan sira kam bo’lmagan darajada ulug’vor o’rin tutadi.

Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirishga doir Davlat dasturida belgilangan vazifalardan yana biri “Yoshlar – Yangi O’zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida "Yangi O’zbekiston – Uchinchi Renessans” g’oyasining ro’yobga chiqarilishini ta’minlashdir. Bu jarayonda: birinchidan, “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi" mavzusida plakatlar turkumi, mulьtimedia va boshqa zamonaviy targ’ibot mahsulotlari yaratish; ikkinchidan, “O’zbekiston qahramonlari", “Ma’naviyat lug’ati" kitoblarining taqdimotini o’tkazish; uchinchidan, “Ma’naviyat festivali"ni har yili o’tkazib borish ko’zda tutilmoqda. Shuni ham ta’kidlash kerakki, davlatimiz rahbari ma’naviyat yo’nalishidagi dolzarb vazifalarni, ma’naviy-ma’rifiy yangi Uyg’onishning ilmiy-nazariy va metodologik asosini yaratib berdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz yaratayotgan yangi O’zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g’oyasi bo’ladi”. Mafkura, avvalo, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi, deganidir. Bu qadriyatlar esa xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi.

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo’lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, deydi Yurtboshimiz. Binobarin, ana shu sa’y-harakatlarimiz samarasi sifatida yuzaga chiqadigan ma’naviy-ma’rifiy Uyg’onish biz bunyod etishga kirishgan Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor bo’lib xizmat qiladi. Yanada aniq qilib aytganda, Uchinchi Renessansning muhim asosini ma’naviy-ma’rifiy uyg’onish tashkil etadi.

Taraqqiyot strategiyasi 73-maqsadi ayni shu mavzu bilan bog’liq istiqboldagi muhim vazifalarni o’zida qamragan. Bunda, xususan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo’ljallanmoqda: birinchidan, IHT, IRSIKA, AYSYESKO, YUNYESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O’zbekiston – Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferentsiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish; ikkinchidan, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng

targ’ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarini xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish; uchinchidan, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib etish maqsadida O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo’llab- quvvatlash. Bu haqda so’z borganda, avvalo, Prezident Shavkat Mirziyoev shu yil 10 fevralь kuni Samarqand viloyatiga safari doirasida buyuk muhaddis Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilgani va mazkur majmua qurilishini ko’zdan kechirganiga e’tibor qaratish lozim. Binobarin, shu kunlarda bu yerda qariyb 10 ming namozxonga mo’ljallangan masjid, to’rtta minora, ayvonlar barpo etilmoqda.

«Bugungi kunda Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 147 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati hamda xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda yaratilgan qulay millatlararo muhit tufayli tojik, turk va qozoq millatiga mansub aholi vakillari tomonidan 2020 yilda 7 ta yangi milliy madaniy markaz va 2 ta do'stlik jamiyati tashkil etildi. Qo'mitaning davlat ijtimoiy buyurtmasiga asosan 2020 yilda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun 600 mln so'm mablag', shuningdek 1,45 mlrd so'mlik grant ajratildi».

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi va Toshkent shahar hokimligi tomonidan milliy madaniy markazlar faoliyatini amalga oshirishda tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatishga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi, deb xabar bermoqda “Dunyo” AA muxbiri. Qo‘mita xabariga ko‘ra, ushbu tadbirda Toshkent shahar hokimligi rahbariyati va xodimlari, respublika milliy madaniy markazlar raislari hamda faollari ishtirok etdi. Qo‘mita raisi Rustambek Qurbonov milliy madaniy markazlarning asosiy vazifasi mamlakat suverenitetini mustahkamlash, davlatning hududiy yaxlitligini ta’minlash maqsadlariga erishishdek oliyjanob g‘oya atrofida millatlarni birlashtirish orqali O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishdan iboratligini qayd etdi.

Toshkent shahar xitoy madaniy markazi Xitoy va o‘zbek xalqlarining o‘zaro madaniy aloqalari Buyuk Ipak yo‘lining ko‘pasrlik tarixi bilan bog‘liq. Bunga miloddan avvalgi I–II asrlarga mansub yozma manbalar va zamonaviy O‘zbekiston hududidagi arxeologik topilmalar dalil bo‘la oladi. Insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyotlardan biri hisoblangan iyerogliflarga asoslangan xitoy yozuvida olib boriladigan xitoy tilini o‘qitish kurslari markazning faxri hisoblanadi. Markazda xitoyliklarning milliy bayramlari, xususan, Chundze — oy kalendari bo‘yicha bahorni va yangi yilni qarshilash keng nishonlanadi. Undan tashqari, markaz boshqa etnik birlashmalar bilan birgalikda respublikamizning Navro‘z, Mustaqillik kuni, O‘zbekiston Konstitutsiyasi kuni kabi milliy va davlat bayramlarida ishtirok etadi. Bu haqda AOKAda tashkil etilgan matbuot anjumanida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi mutasaddilari ma'lum qildi: «Bugungi kunda Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 147 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati hamda xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda yaratilgan qulay millatlararo muhit tufayli tojik, turk va qozoq millatiga mansub aholi vakillari tomonidan 2020 yilda 7 ta yangi milliy madaniy markaz va 2 ta do'stlik jamiyati tashkil etildi. Qo'mitaning davlat ijtimoiy buyurtmasiga asosan 2020 yilda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun 600 mln so'm mablag', shuningdek 1,45 mlrd so'mlik grant ajratildi».

O‘zbekistonda kechayotgan demokratik jarayonlar, islohotlar istiqboli millatlararo munosabatlarning holatiga, bu jabhada paydo bo‘ladigan turli tahdidlarga qarshi kurashni kuchaytirish, millatlararo totuvlikni ta’minlash, yoshlarni milliy g‘oya, demokratik qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bugungi kunda jahon geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining tobora tezlashuvi tinchlik, barqarorlikni saqlashda dunyo jamoatchiligidan muntazam ogohlikni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida millatlararo hamjihatlik va totuvlikni ta’minlash orqali tinchlik va

barqaror taraqqiyot asoslarini mustaxkamlash barcha millat va elat vakillarining ustivor vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “...Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an’analari muhim rol o‘ynamoqda”, – degan so‘zlari zamirida naqadar katta ma’no mujassam ekani ayon bo‘ladi. Bugun mamlakatimizdagi yangilanish va islohotlar haqida so‘z ketganda jahon hamjamiyati “Yangi O‘zbekiston” degan iborani bot-bot tilga olmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlikka berilayotgan alohida e’tibor mamlakatimiz taraqqiyotida yangi davrni boshlanishiga zamin yaratdi. Yurtimizdagi bunday ijobiy o‘zgarishlar dunyo hamjamiyatida O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirib, uning xalqaro maydondagi nufuzini tobora mustahkamlamoqda. Xalqimizga xos bo‘lgan bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatining ravnaqida millatlararo totuvlik, konfessiyalararo hamkorlik muhitining hukm surishi fuqarolarimizni xususan, yosh avlodni ona Vatanga fidoiy va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishga bag‘ishlangan «Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash” deb nomlangan bandida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

1. Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

2. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash.

3. Turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

4. Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

5. Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi tufayli, muayyan davlatda yashayotgan, o‘z davlatchiligiga ega bo‘lmagan etnik guruhlarda separatizm g‘oyalarini vujudga kelishi mumkinligini ko‘rsatgan. Bu esa, davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetiga xavf tug‘dirishi mumkin. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun muayyan davlat o‘z hududidagi etnik guruhlarning muammo va ehtiyojlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni hal etishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi.

Jamiyat hayotining demokratlashuvi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, milliy an’analar va qadriyatlarga jiddiy e’tibor qaratish, milliy manfaatlarni fuqarolik jamiyati institutlari kabi nodavlat tuzilmalar vositasida uyg‘unlashtirish natijasida barcha sohadagi islohotlarning umummilliy manfaatlar bilan mos kelishi ta’minlanadi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar o‘zaro inoq, totuvlikda yashab kelmoqda. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. O‘z navbatida, mazkur konfessiyalarning o‘z faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma imkoniyatlar mavjud. Respublika davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish 7 tilda olib borilyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari Qo‘mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, 34 ta xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik jamiyatlari

faoliyat olib bormoqda. Dunyoning 18 ta mamlakatidagi hamkorlar, 29 ta o‘zbek emigrasiya va diasporalari bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘zbek madaniyati kunlari, tili, xalqining o‘ziga xos milliy an’ana, urf-odatlarini, targ‘ib etishga yo‘naltirilgan anjuman, seminar, davra suhbatlari, ko‘rgazma, viktorina, konsert va boshqa tadbirlar o‘tkazilmoqda va shu orqali millatlararo munosabatlar yanada mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda milliy madaniy-markazlarning o‘rni nihoyatda katta. Turli millat vakillari o‘z madaniyati, tili, urf-odatlarini rivojlantirib, bir-birini o‘zaro boyitishga, ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shadi. Yurtimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va birdamlik muhitining hukm surishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun kunda xalqaro terrorizm, radikalizm, mutaassiblik, ekstremizm kabi illatlarning chegara bilmasligi, bu jahon jamoatchiligida jiddiy tashvish va xavotir uyg‘otayotgani ajablanarli emas. Mazkur illatlarga qarshi kurashda millatlararo totuvlik va hamkorlik yetakchi o‘rinni egallaydi.

Yurtimizning bu borada olib borayotgan sa’y-harakatlari dunyo miqyosida o‘zga mamlakatlarga namuna bo‘layotganligi alohida e’tirof etilmoqda. Bu haqda fikr yuritilganda 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida eslab o‘tish o‘rinlidir. Mazkur rezolyusiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar

vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”,–deya bejiz ta’kidlanmagan. Xalqimiz mayentaliteti va ma’naviyatiga xos bo‘lgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlanishi avvalo, jamiyatimizda ezgu g‘oyalar va insoniy fazilatlarni kamol toptirish, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni hukm surishining asosiy kafolati sanaladi. Va bundan keyin ham millatlararo totuvlik va hamjihatlik yurtimizda tinchlik, barqarorlikni saqlashning samarali omili bo‘lib qolaveradi.

Konsepsiya yaratish zaruriyati jahonda tarix fanining rivojlanishi, yangi tarixiy bilimlarning ortishi, o‘tmishdagi voqealarga jamoatchilik qiziqishi kuchaygani hamda chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan tarixchi mutaxassislar, o‘qituvchi va ilmiy xodimlar yangi avlodini chiqarish, olingan ilmiy natijalarni ta'lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarida ta'sirchan qo‘llash, jamiyatda milliy o‘zlikni anglash hissini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalash bilan bog‘liq ekani aytiladi.

Konsepsiya mazmuni O‘zbekistonda tarix fani sohasi joriy holatining tanqidiy tahlili va mavjud muammolar, ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimi, axborot makoni bilan uzviy bog‘liqligini samarali yo‘lga qo‘yish talablaridan kelib chiqib, ilg‘or milliy va jahon tajribasini inobatga olgan holda, bosh maqsadi, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olishdan iboratdir.

Konsepsiya qabul qilinishi natijasida tarix fani sohasini rivojlantirish butunlay yangicha asosda va tizimli ravishda amalga oshiriladi, jarayonni samarali boshqarish imkoni tug‘iladi. Ilmiy faoliyatni maqsadga muvofiq yo‘lga qo‘yish, katta moliyaviy xarajatlardan muayyan samara olish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi bo‘yicha butunlay yangicha, milliy manfaatlarga mos ilmiy yondashuvlar asosidagi turkum asarlar tayyorlanadi. Chuqur bilimga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan ilmiy xodimlar avlodi shakllanadi. Oliy ta'limda tarixchi mutaxassislar tayyorlashning butunlay yangicha, ilmiy muassasalar bilan uzviy bog‘langan tizimi yaratiladi. Tarix yo‘nalishidagi ilmiy xodimlar, professor-

o‘qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag‘batlantirish darajasi yuksaladi. Qadim, boy va noyob tarixiy merosni milliy va xorijiy darajada targ‘ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o’rganish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda
2. Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuriying
3. Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi nima maqsadda ishlab chiqilmoqda

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yangi o’zbekiston strategiyasi. Shavkat mirziyoeyv. Toshkent. 2021
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi pf-60-son farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi togrisida**.**
3. 10.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: sharq, 2006.
5. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: ma’naviyat, 2017.
6. Mustaqil o‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: akademiya


## 14- Mavzu: Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

**Reja.**

1. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish
2. Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan

3. BMT va O’zbekiston: terrorizimga qarshi kurash va inson huquqlari sohasida hamkorligi

**Tayanch tuhsunchalar:** Ekologiya va atrof muhit, Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillar, BMT va O’zbekiston,

Xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish. Atrof muhitga ta’sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi ob’ektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish. Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo’jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o’tkazish. «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. «Yashil makon» umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo’lga qo’yish. Maishiy chiqindilarni yig’ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026 yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

Respublika bo’yicha 51 ta yer usti tabiiy suv ob’ektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko’llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo’yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash. Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo’lgan hududga aylantirish, ko’kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish. Orol dengizining qurigan tubida qo’shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026 yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish. Orolbo’yida xalqaro «Yashil iqlim» va Global ekologik jamg’armalarning bioxilma-xillik, iqlim o’zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi

uchun «jamoat parklari»ni tashkil etish. Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish.

Respublika hududlarida o'rmonlar maydonini kengaytirish va o'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish. O'rmon fondining tog' va tog'oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish. Cho'l hududlarida o'simliklarni ko'paytirish, hududlarda himoya o'rmonzorlari barpo etish. Sug'oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya ob'ektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish. Davlat o'rmon fondi yerlarida o'rmonlardan foydalanish, o'rmon fondini kengaytirishni tartibga solish. O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish.

O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida amalga oshiraladigan islohotlar ma'lum qilindi. Unga ko‘ra, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytiriladi. Bu haqda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida so‘z boradi. Taraqqiyot strategiyasining 76-maqsadida Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratilgan. Unga ko‘ra, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali davlat siyosati amalga oshiriladi.

Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yot g‘oyalar ta'sirini oldini olish va ularning ta'siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolari bartaraf etiladi. Shuningdek, aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitet shakllantiriladi. O‘zbekiston joriy yilda yilda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda horijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirishni ham reja qilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida diplomatik

vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash ham ko'zda tutilgan. Rejadan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish ham o'rin olgan. Qolaversa, mamlakat faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etishni ham maqsad qilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtiradi. Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning roli kengaytiriladi. Dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish ham nazarda tutilmoqda.

Hozirgi vaqtda Taraqqiyot strategiyasi doirasida, jumladan:

- ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yot g'oyalar ta'sirining oldini olish va bunday ta'sirga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish;
- aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

- diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug‘ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash;
- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;
- faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;
- Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish;
- Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O‘zbekistonning rolini kengaytirish;
- dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e’tiborini Afg‘onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish kabi muhim masalalar doirasida izchil ishlar boshlab yuborilgan.

Xalqaro konferensiyada inson huquqlari masalalariga katta e’tibor qaratilayotgani, ta’bir joiz bo‘lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida ilgari surgan “Inson qadri uchun” tamoyili bilan o‘zaro uyg‘un va hamohangdir. Buni anjuman doirasida “Inson huquqlarining umumjahon miqyosida hurmat qilinishi va qonun ustuvorligi ta’minlanishi – terrorizmga qarshi kurashning asosiy tayanchi” mavzusi alohida sessiya majlisida muhokama qilinishi ko‘zda tutilayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi. Mamlakatimiz BMTning Global aksilterror strategiyasini qo‘llab-quvvatlagan, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha 14 ta xalqaro konvensiya hamda protokolni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, bu borada mamlakatimizda “Ekstremizmga

qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan

2021-yil 16-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida “Terrorizm va inson huquqlari” nomli 76/169-sonli rezolyutsiya qabul qilindi. Rezolyutsiyada terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo‘ravonlik ekstremizmining barcha xurujlari, usul va amaliyotlari, qaysi shakl va ko‘rinishda yuz berishi, qayerda va kim tomonidan sodir etilishi, qanday motivatsiya yo moliyaviy, moddiy yoki siyosiy qo‘llab-quvvatlash negizida sodir etilishidan qat’i nazar, xalqaro huquqqa mutlaqo mos kelmaydigan xatti-harakat sifatida so‘zsiz qoralanishi ta’kidlangan.

BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasida, shuningdek, terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo‘ravonlik ekstremizmi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga g‘ov bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bu salbiy omillar tufayli esa, bir tomondan, insonning siyosiy, shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo‘lida to‘siqlar yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xavfsizligi, hukumatlarning barqarorligi, huquq va demokratiyaning ustuvorligi, yanada tashvishlanarlisi, dunyoda farovon jamiyatlar, xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikning mavjudligi ulkan tahdid ostida qoladi.

Bundan tashqari, 76/169-sonli rezolyutsiyada barcha davlatlar hukumatlaridan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachisiga uning zimmasiga yuklangan vazifa hamda majburiyatlarini bajarishida har tomonlama yordam ko‘rsatishi so‘ralgan. Shu o‘rinda BMT Maxsus ma’ruzachisi Fionnuala Ni Aolaynning mamlakatimizga 2021-yil 28-noyabr – 7-dekabr kunlari amalga oshirgan tashrifi davomida O‘zbekiston tomoni u bilan yaqin hamkorlikda ish olib borgani haqida muxtasar to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Maxsus ma’ruzachisi F.Ni Aolaynni qabul qildi. Muloqot chog‘ida O‘zbekistonning BMT organlari va huquqni himoya qilish institutlari bilan sherikligini mustahkamlashga qaratilgan qator qo‘shma xalqaro tadbirlar o‘tkazishga kelishib olindi.

BMT Maxsus ma’ruzachisi O‘zbekiston Prezidenti bilan muloqoti, shuningdek keng jamoatchilik ishtirokidagi matbuot anjumani va brifinglarda ham O‘zbekistonning “Mehr” operatsiyasi doirasida fuqarolarni mamlakatga qaytarish, reabilitatsiya va reintegratsiya qilish borasidagi sa’y-harakatlarini yuksak baholadi.

F.Ni Aolayn Suriya, Iroq va Afg‘onistondan qaytib kelgan shaxslarning reabilitatsiya markaziga tashrif buyurdi. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi mazkur maskanda o‘z vaqtida “qaynoq nuqta”lardan olib chiqilgan ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

«Oila birligi va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan o‘zbek modeli repatriatsiya qilish, bolaning manfaatini ko‘zlash va siyosiy, huquqiy va ijtimoiy harakatlar markazida o‘choqli hududlardan qaytgan ayollarni samarali reintegratsiya qilish bo‘yicha eng yaxshi amaliyot namunasidir», — dedi BMT Maxsus ma’ruzachisi.

Jahon hamjamiyati va O‘zbekistonning “Mehr” operatsiyasi

